



JADIDLAR



IOQXON TO'RA

Ibrat

YOSHLAR ISHLARI  
AGENTLIQI

Jadidlar



# IS'HOQXON TO'RRA IBRAT

YOSHLAR NASHRIYOT UYI  
Toshkent-2022

UO'K 821.512.133.09-1

KBK 83.3(5O')

D 69

**Dolimov, Ulug‘bek**

Jadidlar. Is’hoqxon to’ra Ibrat [Matn]: risola./U.Dolimov. — Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. — 180 b.

*Loyiha rahbari:*  
**Alisher Sa’dullayev**

*Muallif:*  
**Ulug‘bek Dolimov,**  
pedagogika fanlari doktori, professor

*Mas’ul muharrir:*  
**Bahodir Karimov,**  
filologiya fanlari doktori, professor

*Ijodiy guruh:* **Qandil Boboqulov, Mehrinoz Abbosova**

Pedagogika fanlari doktori, professor Ulug‘bek Dolimovning mazkur risolasida Is’hoqxon Ibratning hayot yo‘li, tarixnavis, tilshunos va shoir sifatidagi ijodiy faoliyati yoritiladi. Shu bilan birga, risoladan Ibratning noshirligi, jamoat arbobi sifatidagi faoliyati haqida e’tiroflar hamda uning hikmatli so‘zлari o‘rin olgan.

Risola keng kitobxonlar ommasi uchun mo’ljallangan.

ISBN 978-9943-6682-3-2

© U.Dolimov,

© Yoshlar nashriyot uyi, 2022

Abdulla Qodiriy nomidagi

Viloyat A’zmi

INV № 2023/21-47



“Ibrat domlaning el-yurtimiz taraqqiyo-  
ti yo‘lidagi fidokorona xizmatlari nafaqat o‘z  
davrida, balki bugungi kunda ham barchamiz  
uchun haqiqiy ibrat bo‘lib kelmoqda”.

**Shavkat Mirziyoyev**  
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

## ADIB HAYOTI

**I**s'hoqxon to'ra Ibrat faoliyat doirasi keng shoir va olim, noshir va pedagog, sayyoh va shariat-din arbobi, milliy uyg'onish davring mashhur islohotchisi sifatida butun hayotini Vatan va millat manfaatiga, uning istiqloliga bag'ishladi.

**Shoirning asli ismi Is'hoqxon bo'lib, "Ibrat" uning adabiy taxallusidir.** Is'hoqxonning keyinroq o'ziga "Ibrat" taxallusini olish boisi shundaki, u faoliyatining dastlabki yillardan boshlab, ma'rifatparvar shoir, pedagog, olim sifatida zamondoshlarini, ayniqsa, yoshlarni zamon ilm-fanidan, ilg'or madaniyatdan, yangicha ta'lim-tarbiya tizimidan ibrat olishga da'vat etdi.



**Is'hoqxon 1279-hijriy<sup>1</sup> (1862-milodiy) yili Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ildi.** Uning bobosi Qo'qon xonligida katta e'tiborga loyiq ziyolilar sulo-lasiga mansub bo'lib, To'raqo'rg'onda uzoq yillar qozilik qilgan va "**Afsus**" taxallusi bilan she'rlar yozgan **To'raxon maxdum edi.** U haqda Po'latjon domulla Qayyumiying "Tazkirayi Qayyumiyy" asarida qimmatli ma'lumotlar, g'azallaridan namunalar berilgan. **Mazkur oila mashhur mutasavvif Ahmad Yassaviy avlodiga mansub** bo'lib, XVIII asr oxirlarida To'raqo'rg'on va Mullakudung qishloqlariga hijrat qilgan. Is'hoqxonning **otasi Junaydullaxo'ja** ancha bilimli sohibkor bog'bonlardan edi. Uning besh tanobcha yeri bo'lib, dehqonchilik va bog'dorchilik bilan oila

---

<sup>1</sup> Is'hoqxon to'ra Ibratning tug'ilgan yili va Xoja Ahmad Yassaviy avlodiga mansubligi uning kenja o'g'li Rotibxon Is'hoqov uyida saqlanuvchi shajarada berilgan.

tebratgan. Shu bilan birga, adabiyotga, ayniqsa, she'riyatga ixlos qo'ygan, "**Xodim**" taxallusisi bilan she'rlar mashq qilgan. Is'hoqxon Ibrat Ahmad Yassaviy (Sulton ul-orifin) avlodiga mansubligini ham yozib qoldirgan:

*Ibrat taxallusimdur, ahfodi Hazrati  
Sulton,  
Shuhratda — Hoji to'ra, ma'vosi —  
To'raqo'rg'on<sup>2</sup>.*

**Onasi Huribibi** o'z davrining o'qimishli, oqila ayollaridan bo'lган, u uyida qishloq qizlarini o'qitardi. Shu bilan birga, adabiyot va san'atga muhabbat qo'ygan, she'riyat bilan ham shug'ullangan. Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Navoiy, Jomiy, Bedil, Mashrab, So'fi Olloyor kabi buyuk shoirlar asarlarini mutolaa qilish xonodon ahli uchun sevimli mashg'ulot hisoblangan. Oiladagi bunday ma'naviy hayot

---

<sup>2</sup> Is'hoqxon Ibrat. Ilmi Ibrat. — To'raqo'rg'on: Matbaayı Is'hoqiya, 1909. 4-bet.

tarzi yosh Is'hoqxonda adabiyot va san'atga muhabbatning ancha erta uyg'onishi va kurtak yozishida asosiy omil bo'ldi: ota-ona ham uning bolaligidan shuuriga Qur'on tilovatini, she'riyat ohanglarini singdirib bordilar. 1870-yillarning ikkinchi yarmida otasi Junaydulloxo'ja vafot etadi.

Is'hoqxon dastlab hijo usuliga asoslangan qishloq maktabida o'qidi, ammo onasining qizlar maktabida o'qib, savod chiqardi. Bu haqda u keyinchalik quyidagilarni yozadi: "*Avvalgi vaqtdagi mahalla maktabida banda o'zum necha yilda 3 adad muallimda o'qub, oxiri savodim chiqmay, keyin o'z uyimizda joriy qizlar maktabida, validayi marhumamda o'qub savod chiqordim. Ikki sana qiblagohimda husnixat mashq etdim*"<sup>3</sup>.

Huribibi o'z maktabida faqat quruq yodlatish bilangina cheklanmay, qizlarga yozishni, husnixatni ham o'rgatar, mashq qildirar edi.

---

<sup>3</sup> Is'hoqxon Ibrat. Mezon uz-zamon. I daftar, 36-bet.



**Is'hoqxon xat-savodi to'la chiqqach, onasi Huribibi rahnamoligida shoir So'fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” risolasini to'liq ko'chirgani ma'lum. Mazkur qo'l-yozma shu kunlarda ham Rotibxon Is'hoqov xonadonida saqlanadi.** Shuning uchun ham Is'hoqxon o'zining “Mezon uz-zamon” asarida onasini ustozni sifatida hurmat bilan tilga oladi. U bolalik va o'spirinlik yillarida ayniqsa husnixatga qiziqdi, bo'sh vaqtini ko'proq bu san'at sirlarini o'rganishga bag'ishladi. Bu haqda keyinroq **“Jome' ul-xutut”** nomli tilshunoslikka oid asarida quyidagilarni ta'kidlaydi: *“13-14 yoshimda maktabi adabda me'morlik ishtiyoqinda edim. Kitobim sahifalaridagi husnixat va husninaqsh fikrlari va ta'limlari ishtiyoqi qalbimda mushtaq'il bo'lib, har xututlar ko'rsam, va z va ta'limlarini bilmaguncha ko'nglim sokit o'lmadi”*<sup>4</sup>.

---

<sup>4</sup> Is'hoqxon Ibrat. Jome' ul-xutut. — Namangan: Matbaayi Is'hoqiya, 1912. 5-bet.



Adabiyot va san'atga mehr-muhabbat qo'ygan Is'hoqxonni o'qishni davom ettirish uchun **1878-yilda Qo'qonga yuboradilar va u Muhammad Siddiq Tunqotar madrasasiga o'qishga kiradi.** Uning Qo'qonda tahsil ko'rgan yillari (1878–1885) o'zbek adabiyotida, madaniy hayotida, ayniqsa, maorifida tub sifat o'zgarishlari sodir bo'la boshlagan davrga to'g'ri keldi. Uning bu adabiy, madaniy-ma'rifiy hayotdan bahramand bo'lganligi, shubhasiz...

Is'hoqxon Ibrat madrasa beradigan ilmlar bilangina cheklanib qolmadı, o'qish davomida buyuk Sharq mutafakkirlari asarlarini mustaqil tarzda qunt bilan mutolaa qildi, arab, fors va rus tillarini chuqur o'rgandi, uning ayniqsa til o'rganishga fitriy qobiliyati kuchli bo'lgan. U o'zbek va rus tillarida nashr etila boshlagan Turkistonning dastlabki gazetalari "Turkestanskiye vedomosti", "Turkiston viloyatining gazeti" bilan, Turkiston ziyorilari o'rtasida



yangi tarqala boshlagan Ismoilbek Gasprinskiyning “Tarjumon” gazetasi bilan birinchi bor Qo‘qon madrasasida o‘qib yurgan kezлari tanishdi, muntazam kuzatib bordi. Is’hoqxon tomonidan keyinchalik 1910-yilda tashkil qilingan “Kutubxonayi Is’hoqiya” nomidagi ancha boy kutubxonasida “Turkiston viloyatining gazeti”, “Turkestanskiye vedomosti” gazetalarining ba’zi yil boylamlari, “Tarjumon” gazetasining, hatto, 1885-1886-yilgi boylamlari (to‘liq bo‘lmasa-da) ham bo‘lgan. U Qo‘qon madrasasida o‘qib yurgan kezlaridan boshlab “Ibrat” taxallusida she’r mashqi bilan shug‘ullandi.

Is’hoqxon Ibrat **1885-yilda** Qo‘qon madrasasini xatmi kutub qilib, o‘z qishlog‘i **To‘raqo‘rg‘onga qaytadi** va faoliyatini ilg‘or maorifchi-pedagog sifatida qishloqda ilm-ma’rifat tarqatish bilan boshlaydi: o‘sha yili maktab ochadi. Uning maktabi hijo metodiga asoslangan “usuli qadim” maktablaridan tub-

dan farq qilar edi: “*Mana, emdi banda o‘zum usuli savtiyaning avlodi islomg‘a yordamini ko‘rub, o‘z masjidimizda maktab ochdim. Bir sanada ko‘b yoshlar, hattoki katta yoshga kir-gan tujjorlardan o‘qub, xat-savodini chiqorib, maishat va tijoratlarida osonliklar mushoha-da qildilar*”<sup>5</sup> — deb yozadi Is’hoqxon.

Is’hoqxon Qo‘qonda o‘qib yurgan vaqtlaridayoq o‘lkada rus va mahalliy millat bolalari uchun ochila boshlangan rus-tuzem maktablari-dagi o‘qitish usullarining mahalliy maktablarda hukm surayotgan hijo hamda quruq yodlash usulidan katta afzalliklarini mushohada qilgan edi. Is’hoqxon o‘z maktabiga nisbatan ilg‘or bo‘lgan, savodga o‘rgatishda ancha yengillik vujudga keltiruvchi **usuli savtiyani** — **hozirgi atama bilan aytganda**, “**analitik tovush metodi**” ni **tatbiq qildi** va uni “**usuli qadim**” tarafдорларидан, mutaassib din peshvolаридан himoya qildi. “**Usuli savtiya**” metodi “**usuli**

<sup>5</sup> Is’hoqxon Ibrat. Mezon uz-zamon. II daftari, 45-bet.

hijoiya” metodidan tubdan farq qilar edi. Eski maktablarda savod o'rgatish usuli harflarning qanday tovushlar ifodalashini o'rgatishga emas, balki harflarning faqat nomlarini “alif, be, te, se, jim, he...” tarzida quruq yodlashga asoslangan edi. Harflarning qanday tovushlarini ifodalashini tushunmagan murg'ak bolalar harflarni qo'shib, bo'g'in, so'z hosil qilishga ni-hoyatda qiynalar edilar. Natijada, 5-6 yil mobaynida yozish u yoqda tursin, xatosiz, ravon o'qishni ham o'rgana olmas edilar. O'qishga o'rgatish ham shu harflarning nomlarini tushunmay yodlash usuliga asoslangan edi. Yevropa pedagoglari XVIII asr boshidayoq “usuli hijo” metodidan voz kechgan, usuli savtiya — analitik tovush metodiga o'tgan edilar. Bu hol yangi o'sib kelayotgan izlanuvchan mahalliy yosh pedagoglarni, dunyo ko'rgan ziyolilarni o'ylashga, o'z pedagogik faoliyatlariga, maktablarda hukm surayotgan o'qitish usullariga tanqidiy qarashga majbur etar edi.

Biroq Is'hoqxon Ibrat o'z mактабида узоқ ваqt ishlay olmadi. Ba'zi bir johil mutaassiblar uning maktabida an'anaviy o'qitish usullaridan ancha farq qiladigan, Yevropa va rus maktab-larida qo'llanayotgan tovush usulidan foyda- langanligi uchun diniy-islomiy an'anani buzish hisoblab, "kofirlar mактabi" deb e'lon qildilar va xalq bolalarini bu maktabdan qaytarishga harakat qildilar, hatto general-gubernatorlik ma'murlari yordamida yoptirdilar. Bu yosh islohotchi-maorifchi Is'hoqxon to'raning mutaassiblar va mustamlakachi ma'murlar bilan birinchi to'qnashuvi edi.

Is'hoqxon Ibrat o'zining "Lug'ati sitta al-sina" va "Tarixi Farg'ona" asarlarida yozishicha, **1887-yili, ya'ni 25 yoshida onasini hajga olib boradi.** Biroq onayizoriga o'z vataniga qaytib kelish nasib etmadni, Huribibi haj amallarini bajarib, Jidda shahrida o'pka shamollashi kasalidan vafot etadi. Shoir Ibrat onasining o'limi munosabati bilan butun dard-alamlarini ifodalovchi ta'rix-marsiya bitdi.

Is'hoqxon to'raning Sharq mamlakatlariga safarga chiqishdan asosiy maqsadi, avvalambor, onasining hajga olib borish haqidagi iltimosini qondirish bo'lsa, ikkinchidan, chet el xalqlari hayoti, madaniyati va ma'naviyati bilan yaqin-dan tanishish, xorijiy tillarni o'rghanish, bu mamlakatlarni o'z ko'zi bilan ko'rish ishtiyoqi edi: "*Urim naqdini havas bozorida kechirmak taqozosi-la o'lub, sinnim yigirma besh kechmisht ekan, havoyi taqazoyi muhtarama du-shub sayohat etdim*"<sup>6</sup> — deb yozadi Is'hoqxon.

Is'hoqxon Ibrat onasini Jidda shahrida dafn etib, Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohati-ni davom ettirdi, shu bilan birga, **u Istanbul, Sofiya, Afina, Rim, Parij kabi Yevropa-ning markaziy shaharlarida bo'ldi**, ancha vaqt Arabistonning Jidda shahrida istiqomat qildi. Makkayi mukarrama shahridan Qizil va Arabiston dengizlari orqali **Hindistonga** keldi.

---

<sup>6</sup> Is'hoqxon Ibrat. Lug'ati sitta al-sina. — Toshkent: Ilyin, 1901. 2-bet.

1892–1896-yillarda Hindistonning eng katta port shaharlari Bombey va keyinroq Kalkutta-da yashadi. Bu yerda u xalqlar o‘rtasida ko‘p ishlataladigan arba‘i lisonni, ya’ni to‘rt tilni: arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o‘rgandi. Chet ellarda xalq hayoti, ularning maorif va madaniyati, Sharq mamlakatlaridagi yevropaliklar orqali kirib kelgan Yevropa madaniyati, tili va san’ati bilan yaqindan tanishdi, o‘rgandi, ilmiy asarlari uchun qimmatli ma’lumotlar to‘pladi. **U Sharq tillari bilan bir qatorda, G‘arb tillarini ham bilish zarur deb hisobladi va Arabistonda fransuz tili ni, Hindistonda ingliz tilini, shu bilan birga, eng qadimiylarini finikiy, yahudiy, suryoniy, yunon yozuvlarini o‘rgandi.** Ibratning Sharq va G‘arb xalqlari tillarini ancha mukammal bilganligini e’tirof etib, Ibrohim Davron shunday yozadi: “...*Fozili insoniyadin moado qozi to‘ra* (Is’hoqxon Ibrat. — U.D.) *janoblari turkcha,*

*forscha, hindcha, ruscha lison bilib, yana ruscha, fransuzcha, armanicha va boshqa xatlar yozmoqqa mohirdurlar*"<sup>7</sup>.

Is'hoqxon Ibrat bu mamlakatlarda qurilgan Yevropa usulidagi shaharlar, ulardagi madaniy hayot va texnika yangiliklari bilan tanishar va o'rganar ekan, bu madaniy hayotdan bahramand bo'la olmayotgan, mustamlaka zulmi ostida azob chekayotgan arab, hind va boshqa Sharq xalqlari hayoti uni iztirobga soldi, o'z vatanida ko'rgan mustamlaka zulmi dahshatlarini, ularning ilm-ma'rifatdan mahrum etilganliklarini chet mamlakatlarda ham ko'rdi. Unda mustamlakachilarga nisbatan nafrat hissi tug'yon urdi. U bu mamlakatlarda naqqoshlik, kishilarga muhr yasab berish, masjid-madrasalar peshtoqlariga, qabr toshlariga naqsh solib berish, ba'zi kitoblardan namunalar ko'chirib berish yo'li bilan tirikchilik o'tkazdi. Is'hoqxon Ibrat chet ellarda olim va fozil kishilar bilan,

<sup>7</sup> Haq so'z.// Turkiston viloyatining gazeti. 1908, 56-son.

ular qaysi din yoki millatga mansub bo‘lishidan qat’i nazar, yaqin aloqada bo‘ldi. “*Har bir lison safar ahlina yuz oltun barobarinda*” ishlatilganligini tushungan va ko‘rgan ma’rifatparvar chet tillarini o‘rganishga katta e’tibor berdi: “*Har bir zavvor va ahli fazl kishini ko‘rsam, kayfiyati va ta’limoti maol<sup>8</sup>-larini andin so‘radim*”<sup>9</sup>, deb yozadi Is’hoqxon.

**Is’hoqxon to‘ra Ibrat 1896-yilda Hindistondan Birma orqali Xitoyga, so‘ngra Qashqarga o‘tdi va undan o‘z vataniga juda katta taassurotlar bilan qaytib keldi.** “O‘n yil vatan sog‘inchi bilan uzoqlarda yashab, “Hubbul vatan minal iymon” deya Vatan tuprog‘ini ko‘ziga surdi”, — deydi uning shogirdi Mulla Iskandar dom-la Abduvahob o‘g‘li.

<sup>8</sup> Maol — oqibat, natija; mazmun, ma’no, mohiyat.

<sup>9</sup> Is’hoqxon Ibrat. Jome’ ul-xutut. — Namangan: Matbaayı



U chet ellardan bir qancha madaniyat ashyolari: turli mavzularda va tillarda bitilgan qo'lyozma va bosma kitoblar, Hindistondan rus va Yevropa kompozitorlarining asarlari yozilgan "Santur"<sup>10</sup> nomli musiqa asbobi, bir qancha plastinkalar bilan grammonfon olib keldi, hamqishloqlariga namoyish qildi. Shoir Ibrat musiqa san'atidan ancha xabardor bo'lib, tanburni juda yaxshi chalar edi. **U keyinroq mashhur hofiz Mulla To'ychi Toshmuhamedov bilan g'oyat yaqin do'st bo'lgan**, ular orasida bordi-keldi bo'lib turgan, bu ikki san'atkori Toshkent va Namanganda uyushtirilgan adabiy yig'inlarda qatnashib turganlar.

---

<sup>10</sup> "Santur" musiqa asbobi grammofondan oldinroq chiqqan, grammofon singari maxsus ruchka bilan muruvvati aylantiriladi. Uning 40 santimetrali o'qi bo'lib, unda mingdan ortiq mayda ninachalari bor. O'q aylanganda, ninachalar dumaloq diskka uriladi, natijada, santurga yozilgan 12 ta musiqa asari ketma-ket ijro etiladi. Santur va grammofon To'raqo'rg'ondag'i "Is'hoqxon Ibrat muzeyi"da saqlanadi. — U.D.

# IJODI VA FAOLIYATI

**“Lug‘ati sitta al-sina” haqida.**

**L**XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan e'tiboran mahalliy aholi o'rtasida G'arb tillariga, xususan, rus tiliga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirib yubordi. “Usuli savtiya” metodiga asoslangan, zamon talablariga javob beradigan jadid maktablari hamda rus-tuzem maktablari o'lkaning faqat katta-katta shaharlaridagi-na emas, shu jumladan, yirikroq qishloqlarida ham ochila boshladi. Zamon talablarini yaxshi tushungan ilg'or fikrli kishilar o'z farzandlarini bunday maktablarga bera boshladilar. **1902-yilda To'raqo'rg'on qishlog'ida ham bir rus-tuzem maktabi ochiladi va maktabga homiylik qilish xalq qozisi Is'hoqxon to'ra Ibratga topshiriladi.**

Rus tili bilan bir qatorda o'nga yaqin Sharq va G'arb tillarini ancha mukammal bil-

gan Is'hoqxon Ibrat bu masalada o'z xalqiga yordam qo'lini cho'zdi. **U olti tildagi: arabcha, forscha, hindcha, turkcha, sartcha (o'zbekcha) va ruscha so'zlarni o'z ichiga olgan "Lug'ati sitta al-sina" nomli lug'at kitobini yaratdi.** Mutafakkir mazkur asarini yaratar ekan, birinchi navbatda, rus tiliga qiziquvchi o'zbeklarni ko'zda tutdi. Bu hol kitobning titul varag'iga bitilgan so'zlardanoq ko'zga tashlanadi. Muallif aholining asosiy qismi — kirill yozuvini bilmaydigan o'zbeklarga qulay bo'lsin uchun ruscha so'zlarni ham arab yozushi bilan beradi. Ma'lumki, rus va Yevropa so'zlarining talaffuzi nuqtayi nazaridan ularni arab imlosida ifodalash ancha murakkab ish, lekin Is'hoqxon bu murakkablikni ancha muvaffaqiyatli hal qildi. Olimning ushbu asari XIX asr 90-yillarining o'rtalarida, uning chet el safaridan qaytib kelishi bilanoq yozib yakunlangan bo'lsa-da, Chor ma'murlari to-



monidan mahalliy mualliflar asarlari nashriga qarshi o'rnatilgan qattiq nazorat, ta'qib tufayli asar ancha kechikib, **1901-yilda bosmadan chiqdi**. Buni o'sha davrda chor Rossiyasining mustamlaka Turkistondagi matbuot noziri (senzori) vazifasini bajaruvchi Nikolay Ostromov shaxsiy arxivida saqlanuvchi hujjatlar ham tasdiqlaydi. Arxivda Is'hoqxon to'raning N.Ostromov nomiga yo'llagan ikkita maktubi saqlanadi. Birinchi maktub 1898-yilning boshida bitilgan bo'lib, unda Ibrat Ostromovga lug'atni bosmadan chiqarishga yordam berishini iltimos qilib murojaat etadi va uning taklifiga muvofiq kitobning ikki juz'ini yuboradi. Lekin uzoq vaqt asarni nashr qilish yoki qilmaslik haqida hech qanday javob ololmaydi. Ibrat 1900-yilning 26-fevralida ikkinchi marta rus va o'zbek tillarida xat bilan murojaat qilishga majbur bo'ladi. Mazkur asarni nashr qilishda katta ahamiyatga ega bo'lgan

maktub matnini keltiramiz: “1900-yil 26-fevralda hurmatlu Ostroumov to‘ra huzurlari- ga savolnoma: Ushbu barobarinda siz ulug‘ martabadan o‘tunub so‘raymanki, 1898-yilda sizdan iltimos qilib edim, o‘z tasniflarimdan olti til uzra “Sitta al-sina” degan slovar kitobni bosma qilmoq uchun. Marhamat qilib ikki juz’ yuboring, ko‘rmoq uchun degan ekansiz. Darrov amrlariga muvofiq yuborib edim. Mazkurni(ng) hech xabari bo‘lmagan jihatidan boz iltimos qilib turubmanki, agar nozirlar nazoratidan o‘tgan bo‘lsa, men qolgan o‘n juz’ini ham yuborsam va yoki qabul bo‘lmagan bo‘lsa, o‘shal nusxani marhamat ilan Namangon mahkamasiga, mening ismimga adres etub yuborsalar, boz bo‘lak maslahat qilsak deb, iltimos qiluvchi Is’hoqxon to‘radurman”<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi. 1009-jamg‘arma, 115-ish.

Ma'lumki, chor hukumati o'lka xalqlarining madaniy-siyosiy rivojlanishidan, millat onging uyg'onishidan, ayniqsa, yerli aholining mutaraqqiy millatlar bilan muloqotda bo'lishidan qo'rqrashuning uchun ham o'sha davr taraqqiyotida muhim vosita hisoblangan rus tilini o'rganishga qattiq qarshilik qilar edi. Davlat tomonidan ochilgan rus-tuzem maktablarida esa rus tili juda cheklangan holda o'qitilar, shu bilan birga, millat yoshlari shuuriga mustamlakachilar mafkurasini singdirishga, mahalliy xalqni Rossiya va rus xalqiga nisbatan mutelikda, tobelikda saqlashga zo'r berilar edi. S.Gramenitskiyning rus-tuzem maktablari uchun yaratilgan uch kitobdan iborat "Kniga dlya chteniya" darsligi shu maqsadni amalga oshirish uchun xizmat qilar edi. Shu bois Is'hoqxon to'ra Ibratning mazkur asari bir necha yil chorizm nazoratidan o'ta olmadi. Bu ishda asosiy rolni chor Rossiyasining mustamlaka Turkistondag'i matbuot noziri Ostroumov bajardi.

Is'hoqxon Ibratning mazkur “Lug‘ati sit-ta al-sina” asari bir necha yillik sarguzasht-lardan so‘ng 1901-yil oxirida Toshkentdag‘i V.I.Lenin bosmaxonasida nashrdan chiqdi. Is'hoqxon to‘ra ushbu asarini yaratishda ancha vaqt — chet el safari davomida ilmiy izla-nishlar olib bordi, bir necha lug‘atlarni ko‘zdan kechirdi, ma'lumotlar to‘pladi. Asar kichik muqaddima bilan boshlanadi. Unda muallif mazkur asarni yaratish uchun bir necha yil ma'lumotlar to‘plagani, keyingi avlodlarga “bir nishon” qoldirish maqsadida kitob holiga keltirgani, shu bilan birga, asarning tuzilishi, tartibi haqida gapiradi: “...Sayohat etdugum vaqtlarida Afg‘oniston, Hindiston va For-siston shaharlari sayohatida bir lison sayohat ahlina yuz oltun barobarinda ishладики, бизга mushohada bo‘lib, lisonlar tahsiliga ko‘sish edub va ham dahr elina bir nishon qoldirmak fikri-la bir necha muddati madid bir kitob

*tadvinina jo'stujo' edub va ham olti lison-din murakkab o'ldug'i uchun "Lug'ati sitta al-sina" tasmiya edub, ikki jild ila tartib etdim"<sup>2</sup>.*

Lug'at olti tilli, ancha murakkab, o'zbekcha so'zlarning qarshisida arabcha, forscha, turkcha, hindcha va ruscha tarjimalari beriladi. U mingdan ortiq so'zni o'z ichiga olib, 53 bet, ikki qismdan tashkil topgan.

Is'hoqxon Ibratning mazkur lug'atini arab alifbosida yaratishi ham mustamlakachilarning turkiy xalqlarni ruslashtirish siyosatiga butunlay zid edi. Mana shu nihoyatda muhim va o'ta murakkab masalaga o'zbek ma'rifat-parvarlari, pedagoglari orasida birinchi bo'lib qo'l urdi va zamondoshlarining talabini ancha qondirishga muvaffaq bo'ldi. Lug'atning

---

<sup>2</sup> Is'hoqxon Ibrat. *Lug'ati sitta al-sina*. — Toshkent: Ilyin, 1901, 2-bet.

birinchi qismi alifbo tartibida tuzilgan bo‘lib, har qaysi harfga alohida kichik-kichik boblar ajratilgan. Unda fe’llarning noaniq va kelasasi zamon shakllari avval forscha, keyin uning arabcha, turkcha, hindcha, sartcha (o‘zbekcha) va ruscha tarjimalari berilgan.

Asarning ikkinchi qismi 37 bobdan iborat bo‘lib, fe’llarning boshqa shakllari, otlar, kishilik olmoshlari, kun, oy nomlari, odam a’zolari, hayvonlar, hasharotlar, parrandalar, oziq-ovqat va boshqa narsa-predmetlarning nomlarini o‘z ichiga olgan. Bu qismda avval arabcha, keyin uning forscha, turkcha, hindcha, sartcha va ruscha tarjimalari keltiriladi.

Ushbu lug‘at qo‘lyozma holidayoq qo‘ldan-qo‘lga o‘tib, millat ziyolilari undan foy-dalanishga, ba’zilar nashrdan chiqqunga qadar to‘laligicha ko‘chirib olishga muvaffaq bo‘lganlar. Rus tilini o‘rganish istagida bo‘lgan “usuli savtiyayi tadrijiya” maktablari o‘qituvchilari

va o‘quvchilari bu asarning yaratilishidan juda xursand bo‘lganlar, ko‘p nusxalarda chop etilishini sabrsizlik bilan kutganlar.

Mingdan ortiq faol so‘zlarni o‘z ichiga olgan Is’hoqxon Ibratning ushbu lug‘ati o‘z davrida katta ahamiyat kasb etgan. “Lug‘ati sitta al-sina” asari rus tili asosiy o‘quv premetlaridan biri sifatida o‘qitishga ruxsat etilgan jadid maktablarida ham darslik va qo‘llanma sifatida foydalanilgani ma’lum. Lug‘atning qo‘lyozmaligidayyoq tanishgan zamondoshlaridan biri o‘z taqrizida quyidagilarni yozgan edi: “*Ushbu xayriya nishonda Namangan uyezdiga tobe’ To‘raqo‘rg‘on qozisi janob Is’hoqxon to‘ra o‘z tab’laridan chiqarib, “Sitta al-sina” degan olti lug‘atlik kitob tasnif qilib, bosmaxonaga yuboribdurlar. Mazkur olti lug‘at arabiyl, forsiy, turkiy, sartiy, hindiy va ruscha kitobni alhol iboralarini durust va tas’hihlab ko‘rib turubdurmiz. Albatta, oning*

*bosilmog'iga ijozat berilib, nechand nusxalar bosilib chiqsa kerak. Lekin aksar ibora va lug'atlari tas'hih va tag'yir bo'lindi. Xusan, rusiya lug'atlarini musulmoniya huruflari ila yozmoq ko'p qiyin va dushvor uchun ul ruscha yozilg'on iboralarni ko'proq tag'yir berildi va mazkur "Sitta al-sina" degan janob qozining ixtiro qilgan lug'at kitoblari gar-chand kichik bo'lsa ham, bizning Turkiston viloyatimizda sartiyalardan shuncha til bilib, bul tariqa kitob va lug'at tasnif qilgan odam yo'q edi. Binobarin, ul janob qozining bosma uchun yuborgan va tasnif aylagan lug'at kitoblarini ko'rib, bosma qilmoqqa ijozat berilsa kerak deb umid aylab yozduk. Ul lug'atlarni ko'rib o'qidim<sup>3</sup>.*

Darhaqiqat, taqrizdagi so'zlar zaminida katta haqiqat yotar edi. Mustamlakachilar mafkurasi ustunlaridan bo'lmish N.Ostrou-

<sup>3</sup> Xabarlar // Turkiston viloyatining gazeti. 1901, 4-avgust.

movning tashvishga tushishida ham katta asos bor edi. Agar biz XX asrning dastlabki yillari “Turkiston viloyatining gazeti” sonlarini varaqlar ekanmiz, Is’hoqxon Ibratning mazkur “Lug‘ati sitta al-sina” asariga bag‘ishlab yozilgan turkum maqola-taqrizlarga duch kelamiz.

Umuman, Is’hoqxon to’ra Ibratning mazkur “Lug‘ati sitta al-sina” asari o‘z davrida katta voqeа bo‘ldi, ayniqsa, ilm-fan, maorif va madaniyat ahllari lug‘atni zo‘r mammuniyat va qoniqish bilan kutib oldilar va undan unumli foydalandilar. Ming nusxada bosilgan mazkur lug‘at bir yilga bormasdan xalq o‘rtasida tarqab ketdi.

Asar o‘zbek tilshunosligi fani taraqqiyotida ham muhim ahamiyat kasb etdi, fanimizda ko‘ptilli lug‘atlar tuzishda dastlabki qadam bo‘ldi, shu bilan birga, o‘zbek leksikografiyasi ni rivojlantirishga munosib hissa bo‘lib qo‘sildi. Is’hoqxon Ibrat Muhammad Hakimxon

to‘ra, Ahmad Donish, Sattorxon Abdug‘afforov, Furqat kabi o‘zbek ma’rifatparvarlari g‘oyalarini yuqori amaliy taraqqiyot bosqichiga ko‘tardi. Aytish mumkinki, mutafakkirning mazkur “Lug‘ati sitta al-sina” lug‘ati boshqa asarlari kabi boy ma’lumot asosida katta ehtiyoj samarasi sifatida dunyo yuzini ko‘rdi.

**“Jome’ ul-xutut” to‘g‘risida.** Yozuvning jamiyat, madaniyat va ilm-fan taraqqiyotidagi, uni kelgusi avlodlarga yetkazishdagi ahamiyati beqiyos. Yozuvning vujudga kelishi, rivojlanishi bir necha ming yillik tarixga ega. U odamlar o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatida tillarga nisbatan ancha keyin vujudga keldi va rivojlandi. Yozuv til, ilm-fan va madaniyat tarixi, uning rivojlanish bosqichlari bilan ajratib bo‘lmas darajada bog‘liqdir. Shuning uchun ham jahon yozuvlari tarixi bilan shug‘ullanuvchi shaxs kishilik jamiyatni tarixi, madaniyatni, qachonlardir aloqa quroli hisoblangan, keyin-

chalik o'lik holga tushib qolgan tillar, yozuvsalar bilan hamda jonli til bilan yozuv o'rtasidagi munosabatlar bilan tanishishga to'g'ri keladi.

**Tilshunoslikning murakkab, shu bilan birga, kam o'rganilgan sohasida Is'hoqxon Ibrat ancha mukammal “Jome’ ul-xutut” (“Yozuvsalar majmuasi”) nomli asar yaratdi.** Muallif o'zining mazkur ilmiy asarida jahon yozuvsalarining eng ibtidoysi — piktografik (lotincha pictus — rasm va grekcha grapho — yozaman) yozuvlardan, to shu XX asr boshlaridagi eng mukammal yozuvlargacha bosib o'tgan taraqqiyot tarixini yoritib berishga harakat qiladi.

**Is'hoqxon Ibratning mazkur “Jome’ ul-xutut” asari 132 betdan iborat bo'lib, 1330-hijriy — 1912-milodiy yili Naman-ganda o'zining “Matbaayi Is'hoqiya” bosmaxonasida chop etilgan.** Muallif bu asarning yaratilish tarixi, ko'zda tutgan maq-

sadi, asarning nomlanishi haqida quyidagilarni yozadi: “*Bul xatlarni boqiy va tariq<sup>4</sup> qarori muddao bo‘lib, ham millatimizga yagona bir tarix qoldirmoq qasdinda va ham olama bir asar qoldirmoq niyat etub bu misra mujibi:*

*Asardurki, olamg‘a o‘lg‘ay nishon,*

*Kishi beasardur ketar benishon, —*

*mazmunicha botadvin<sup>5</sup> aylab, royi soqib, arbobi xasm va arbobi fazl-u komillarga manzur qilib, millatga nishon qoldirib, ham millatimiz lisoni turkiy uchun umumiyl turkiy ilan sartiya xalqini naf’ olmoqqa muddao bo‘lib, adabiy-milliyona qilmay, ravshan turkiy qildim. Millatimizni(ng) forsiylariga ikkinchi tab’ada forsiy qilinur va jam’i xatlargalarga jome’ uchun “Jome’ ul-xutut” tasmiya edub, o‘z xatimiz va o‘z tilimiz va o‘z matbaaimizda tab’ qilmoq maqsad bo‘lib, tab’i*

---

<sup>4</sup> Tariq — yo‘l, usul, yo‘sin.

<sup>5</sup> Tadvin — to‘plash, yozish, e’lon qilish.

*sharif, ahli raso va qalbi latif, ahli zakolarga peshkash qildim*"<sup>6</sup>.

Is'hoqxon Ibratning tilshunoslik fani sohasida chuqur bilimga ega ekanligi mazkur asarida ham namoyon bo'ldi. Asarda pik-tografik yozuvlardan keyin vujudga kelgan finikiy, yahudiy, suryoniy, arab, yunon, fors, xitoy, slavyan, sanskrit, hind, arman, lotin, gruzin, uyg'ur va boshqa qirqdan ortiq jahon yozuvlari, ularning kelib chiqishi, taraqqiyoiti haqida ma'lumot berilgan, bu yozuvlardan, alifbolardan namunalar ketirilgan. Ibrat faqat o'z vatanidagi qadimgi yozuvlar namunalarini o'rganish bilan cheklanmay, arab mam-lakatlaridagi qadimiylar yozuv madaniyatini ham o'rgandi, bu yozuvlarni to'g'ri o'qishga harakat qildi. Muallif ushbu asarida arab yozuvlari tarixi, ularning rivojlanish evolyutsiyasiga alohida to'xtaladi. U o'z tekshirishlari natijasida

---

<sup>6</sup> Is'hoqxon Ibrat. Jome' ul-xutut. — Namangan: Matbaayi Is'hoqiya, 1912. 6-7-betlar.

quyidagi ilmiy xulosaga keladi: arab yozuvlari nabati xalqi yozuvlaridan kelib chiqqan bo'lib, VII asrdan boshlab ikki shaklda — kufiy va nasx yozuvlari shaklida rivojlangan. **Kufiy va nasx yozuvlari asosida nisbatan sodda bo'lgan "suls" yozuvi yaratildi.** Bu haqda asar muallifi quyidagilarni yozadi: "*Xatti davrondin suryoniy chiqorib, suryoniydan kufiy chiqorib, kufiydan sulsni, sulsdan ta'liqni, suls ila ta'liqdin nasxta'liqni, nasxta'liq kitob xatimizdurki, 800-hijriyda Eron-da, shahri Tabriz degan baldada Xo'ja Mir Ali Tabriziy chiqarganlar. Nasx ila ta'liqdin murakkab uchun nasta'liq ism qo'yganlar. Bu xat Arabistonda joriy emas. Hindiston va Buxoro, Turkiston, Farg'ona, Koshg'ar ahli islom oralarida joriydur. Bunga sabab bu mulklarga Eron podshohlari ixtiloti bo'lib, Buxoro bo'luklarni olib, ul vaqtarda joriy qilingan ekan*"<sup>7</sup>.

<sup>7</sup> Jome' ul-xutut, 74-bet.

Is'hoqxon Ibrat "Jome' ul-xutut" asarida dunyoda mashhur bo'lgan qirqqa yaqin yozuv tizimi haqida, shu jumladan, arab xatinining suls, tavqe', rayhon, zulf, humoyun, turra kabi husnixat shakllari haqida ma'lumot beradi va, shu bilan birga, husnixat san'atiga oid qimmatli fikrlar bayon qiladi hamda namunalar keltiradi.

Is'hoqxon to'ra Ibrat ushbu asarida rus tili bilan bir qatorda, ingliz, fransuz, nemis, lotin kabi chet tillarni o'rganish ilm-fan, texnika va madaniyatni egallashda katta ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlaydi. O'z zamondoshlarini, ayniqsa, yosh avlodni rus va Yevropa tillarini o'rganishga da'vat etishi uning mazkur "Jome' ul-xutut" asarida alohida o'rinni egalaydi: "*Dorixonaga borganda, lotinchcha zarur. Hindistonga xat qilinsa, inglizcha bo'lmasa olmaydur, Eronistonga fransaviy. Biz turkistonliklarga birinchi zarurimiz rusiya xatidur-*



*ki, muni qozi va mudarrislar inkor qilmaslar. Axbornoma, rapurt yozsalar, mudarrislar bo'lsa, ruscha biladurgan kishiga oqcha berib, rapurt yozdiradurlar, alarga juda zarur. Savdogarlarga Maskovdan mol yozmoqqa zarur hukumat xati bo'lub, binobarin, ehtiyoji xalqulloh hamma jihatdin buni bilmak zarurligi badihiy”<sup>8</sup>.*

Is'hoqxon Ibrat o'z salaflari — ma'rifatparvar shoirlar, olimlar an'analarini davom ettirib, Rossiyaning O'rta Osiyoda olib borayotgan dahshatli mustamlakachilik siyosatini qattiq qoralaydi, xalq hayotiga kirib kelayotgan ilmfan, madaniyat, o'quv-tarbiya tizimidagi ilg'or metodlarni, ayniqsa, turk dunyosining ma'naviy rahnamosi, buyuk mutafakkir Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan asoslangan “usuli savtiyayi tadrijiya” metodini, eski, o'lib borayotgan urf-odatlar bilan endi tug'ilib kelayotgan

<sup>8</sup> O'sha asar, 106-bet.

yangiliklar o'rtasidagi kurashni qo'llab-quvvatladi, yangilikning g'alaba qilishiga ishondi. Is'hoqxonning ilm doirasi keng olimligi uning hamma narsani — ilm-fan, maorif-madaniyat, tillar, yozuvlarni, shu bilan birga, odamlarni aqlan o'sishda, rivojlanishda, o'zgarishda deb tushundi. Is'hoqxon to'ra zamon hamisha o'zgarib, yangilanib turishini alohida ta'kidlaydi, har qanday narsa-buyumlarni, hatto voqeahodisalarni dialektik o'zgarishda, taraqqiyotda ko'radi, millatdoshlarini zamondan, taraqqiyotdan orqada qolmaslikka chaqiradi. Is'hoqxon Ibrat o'zi yashab turgan zamonda ilm va fan, maorif va madaniyatning birmuncha rivojlanganini mazkur asari "Jome' ul-xutut"da zo'r mammuniyat bilan qayd etadi. U bunday rivojlanishni o'lkaga ilg'or madaniyat va fanning kirib kelishida deb tushundi. Is'hoqxon o'z davrini xonliklar davri bilan taqqoslar ekan, ilmli kishilarning, ilm-fan maskanla-

rining ancha ko‘payganidan mamnun bo‘ladi: “*Asrimiz madaniyati bor edi... Chunonchi, otasharoba, telegram, telefon, elektr fonarlar, necha xil uchadurgan ayruflon, gramafon, litograf, tifograf, anvoi mashinalar, aftomobil, velosifed, tilsiz telegramlar, necha-necha ashyoviy jadidalar, anvoi adidalar hammasi mavjud edi*”<sup>9</sup>.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, Is’hoqxon chet el sayohati davomida o‘zining yozilajak asarlariiga katta hajmda ma’lumotlar to‘pladi. U yozuvlar tarixiga oid ilmiy asar yaratishni mazkur asari muqaddimasida yozishicha, chet el-larga ketishdan ilgari o‘ylagan edi. U Farg‘ona vodiysidagi eski yozuv namunalarini, masjid va madrasalar peshtoqlariga, qabr toshlariga, qadimgi tangalarga, eski kitoblarga, tog‘-toshlarga o‘yib bitilgan yozuvlardan namunalar to‘pladi. Arab mamlakatlarida eng qadi-

<sup>9</sup> Jome’ ul-xutut, 15-bet.

miy xalq — finikiya xalqi yozuvi madaniyatini o'rgandi, bu bitiklarni to'g'ri o'qishga harakat qildi. Is'hoqxon o'zi yashab turgan zamonidan 2000 yil ilgari finikiya xalqlari tomonidan vujudga keltirilgan yozuv yodgorliklarini Kipr orolidagi g'orlardan topdi va ulardan o'z asarida namunalar keltirdi. Is'hoqxon yozuvlar tarixini o'rganar ekan, tovush-harf yozuv tizimi birinchi marta finikiya xalqlari tomonidan yaratilgan va boshqa qo'shni xalqlar yozuvlari finikiya yozuvlari asosida vujudga kelgan degan to'g'ri ilmiy xulosaga keladi.

Is'hoqxon to'ra Ibratning, ayniqsa, yoshlari o'rtasida G'arb tillarini targ'ib qilishi, albatta, mustamlakachilar mafkurasiga, ular olib borayotgan siyosatga zid edi, shuning uchun ham uning faoliyati bir umr mustamlakachilar ta'qib va tazyiqi ostida kechdi, mutaassib ulamolar esa malomat toshlarini yog'dirdilar, kofirlikda aybladilar.

Is'hoqxon Ibratning XX asr boshlaridayoq olib borgan ilmiy-ma'rifiy faoliyati uning ajoyib tilshunos olim — filolog ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, Is'hoqxon Ibrat maorif va madaniyatimiz taraqqiyoti tarixida husnixatni mukammal egallagan xattot sifatida ham katta shuhrat qozondi. Bu hol uning “San’ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy” (1908), “Jome’ ul-xutut” asarlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu ikki asar Toshkent xattotlik maktabi namoyandalari o‘rtasida ham katta e’tibor qozongan. Ibrohim Davron xabar berishicha, Is'hoqxon zo‘r xattot, husnixatni mukammal egallagan kalligrafdir. **U bu sohadá yaratgan “Shoyoni bir san’ati (asari) uchun 1907-yilda katta mukofotga sazovor bo‘lgan.** U ham xattoti a’zamdur. Chunki musulmoncha xat yozmoqdin o’n yetti nav’ yozuv birla qalam yurguzurlar. Bu osori qalamiya va aqliyasidin namunayi zoti, demakki,

shoyon bir san'ati o'tgan yili — 1907-yilda janob Turkiston generol-gubirnatoriga taqdim qilinib, shoistalig‘ig‘a ikkinchi darajali pocho‘tnoy xalat (faxrli chopon) olgan edilar”<sup>10</sup>.

Is'hoqxon Ibratning “Jome’ ul-xutut” asaridan oldinroq yaratilgan “San’ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy” asari xattotlar uchun husnixat bo'yicha qo'llanma sifatida yaratilgan bo'lsa-da, Farg‘ona vodiysi viloyat va shaharlarida faoliyat ko'rsatgan usuli jadid mакtablarida “Alifbo” darsligi sifatida ham qo'llangan.

**“Tarixi Farg‘ona” asari.** Is'hoqxon Ibrat olim sifatida bilim doirasining ancha kengligi bilan ham zamondosh shoirlar va olimlardan ajralib turadi: uning ishlarini O'rta asrning buyuk qomusiy olimlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamaxshariy kabilar faoliyati bilan qiyoslash

---

<sup>10</sup> Haq so'z.// Turkiston viloyatining gazeti, 1908, 56-son.

mumkin. U ko‘plab Sharq va G‘arb olimlarining ilmiy asarlari bilan ham tanish bo‘lgan. Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, uning shaxsiy kutubxonasida rus va o‘zbek tillarida Turkistonda nashr qilingan gazeta va jurnallar boy'lamlari, kitoblaridan tashqari, Rossiya va chet ellarda ko‘chirilgan yoki chop etilgan matbuot namunalari, kitoblari ko‘p bo‘lgan. U o‘zining 1926-yilda yaratgan “Tarixi madaniyat” asarida xabar berishicha, keyingi 30 yil ichida, ya’ni chet el safaridan qaytgach, 14 ta ilmiytarixiy, lingvistik, axloqiy-ta’limiy asar, 30 yillik nazmiy ijodining majmui bo‘lmish “Devoni Ibrat” she’rlar to‘plami, o‘nlab publitsistik maqolalar yaratgan. Is’hoqxon to‘ra Ibrat yirik tarixshunos olim sifatida “Tarixi Farg‘ona”, “Tarixi madaniyat” kabi ilmiy, islom dini ah-komlarini mukammal biluvchi shariat va din peshvosi, dinshunos olim sifatida “Mezon uz-zamon”, “Fiqh Kaydoniy” singari ilmiy, islamiy-ta’limiy asarlar yaratdi.

**Mutafakkirning xalqimiz tarixiga ba-**  
**g'ishlangan eng yirik va keng qamrov-**  
**li asari "Tarixi Farg'ona" yilnomasidir.**  
 Muallif ushbu asarini yaratishda ko'zda tutgan  
 asosiy maqsadini shunday ifodalaydi: "*Ta-*  
*rixi Farg'ona ni yozmoqdin maqsad izhori*  
*hunar yoki musannif qatoriga kirmak yoki*  
*ta'mini tiriklik yo'lida bo'lmay, balki bani*  
*basharni(ng) tiriklik qilish, sanoat va ziroat-*  
*lari, madaniyat va badaviyatlarini xalqlar-*  
*ga ko'rsatmak, bizdan keyin keladurgan-*  
*lar o'tganlarni(ng) turmush va qilmush va*  
*bilmush ishlaridan ibrat olsun. O'z zamoni*  
*bilan o'tgan zamонни tarozу qilib, vazni-*  
*ni bilsun uchun va ham ilmi ta'rix bir ilmi*  
*ta'rifdur. Ilmi sharif va ilmi najib ekani, ilm-*  
*lik va fikrlik insonlarga oshkor va ravshan*  
*ekani ma'lum uchun Farg'ona tarixini yoz-*  
*moqqa taraddud ayladim*"<sup>11</sup>.

---

<sup>11</sup> Is'hoqxon Ibrat. Tarixi Farg'ona. Qo'lyozma. O'zRFA SHI Qo'lyozmalar xazinasi, inv. 11080, 3-4-betlar.



Asarning ikki varianti (shartli ravishda) mavjud bo‘lib, asli — birinchi variantini quyidagi so‘zlar bilan yakunlagan: “Tahrir va tasvidi Ibratdin, 1333-hijriyda, ya’ni muallif dast-qalami iladurki, 1916-milodiy.

*Keldi boshima yaxshi bir ovon,  
Mango tavfiq yarotib Subhon.  
Erdi Farg‘ona tarixi shug‘lim,  
Ta’lif ettim kelib mango davron.  
Ismi tasnifig‘a bo‘lub ta’rix,  
Bekam-u ko‘sit lafzi bu “Farg‘on”<sup>12</sup>.*

**Tarix moddasi “Farg‘on” so‘zidan “Tarixi Farg‘ona” asarining yozib tuga-tilgan 1331-hijriy – 1913-milodiy yili ke-lib chiqadi.**

Is’hoqxon Ibrat nashr etish maqsadida bu musavvada holatda bo‘lgan asar qo‘lyozmasini xattot Inoyatxon To‘raqo‘rg‘oniya ko‘chirti-

<sup>12</sup> Is’hoqxon Ibrat. Tarixi Farg‘ona. Qo‘lyozma. O‘zMUning G‘ulom Karimov fondi.

radi va yaqin tanishlaridan “Turkiston viloyatining gazeti” sobiq xodimi tarixchi Mulla Olim Maxzum hojiga (bu olim ham xuddi shu davrga bag‘ishlangan “Tarixi Turkiston” nomli asar yaratgan) yoki yaqin do‘sti Ibn Yaminbek vafot etgani uchun uning uksasi Fansurullohbek Xudoyorxon o‘g‘liga — Toshkentga yuboradi. O‘zining bosmaxonasi “Matbaayi Is’hoqiya” sho‘ro hukumatining dastlabki yiliyoq egasidan tortib olingan va bu asarni o‘z bosmaxonasida nashr etish imkoniyatidan mahrum etilgan edi. 1910-yillarning ikkinchi yarmidagi parokandalik, 20-yillar boshida hukm surgan ocharchilik, qatag‘on, buning ustiga, Mulla Olim Maxzumning vafot etishi, Fansurulohbekning qamoqqa olinishi va sho‘ro zindonida halok bo‘lishi bilan asar qo‘lyozmasi kimlarningdir qo‘lida qolib ketgan. Is’hoqxon to‘ra Ibrat afsus-nadomat chekish bilan ish bitmasligini tushunib, paro-

kanda bo'lsa ham saqlanib qolgan asarning musavvadasi hamda o'z xotirasi asosida qayta yozib chiqqan. Chunki asarni nashr etish fikri uni tark etmagan. Ammo asar bu holda sho'ro hukumati matbuot nazoratining "ming bir chiyrig'i" dan o'tmasligini yaxshi bilgan va uni 1920-yillarning ikkinchi yarmida butunlay qayta ishlagan, sho'ro mafkurasi talablariga moslashtirishga harakat qilgan. Bu hol asarning debochasida tarixiy asar yaratish metodologiyasiga munosabatida ham ko'zga yaqqol tashlanadi. Is'hoqxon Ibrat ushbu qayta ishlangan variantda Sharq va G'arb metodologiyasini yaxshi ma'noda omixta qilishga harakat qilgan: "*Islom muarrixlari aksariyat ila hamma tarixlari umroniy bo'lub, jug'rofiy, madaniy va sanoiy bo'lmay, faqat xalqlarning xonlari va urushlari birla ado qiladurlar.* Men bu tariximda mubolag'aga oshurub, maxtab va aqlning romkasig'a sig'maydurgan so'zlar-

*ni olmay, to'g'ri va aql kosasiga sig'adur-gan so'zlarni oldim va ajnabiy tarixlardan ko'proq yozdim*<sup>13</sup>, deb ta'kidlaydi.

Is'hoqxon Ibrat tarixiy asarini yozishda ko'proq o'zbek muarixlari bilan bir qatorda rus va Yevropa sharqshunoslarining asarlardan bahramand bo'ldi, chuqur o'rgandi, ularga tanqidiy munosabatda bo'ldi. G'arb tillarini ham ancha mukammal bilgan olim "Tarixi Farg'ona" asarini yaratish jarayonida atoqli sharqshunos olimlar V.V.Radlov, V.V.Bartold, V.P.Nalivkin, turkshunos, etnograf, sayyoh Herman Vamberi asarlardan foydalandi, ularga o'z munosabatini bildirdi. Darhaqiqat, uning nihoyatda boy shaxsiy kutubxonasi — "Kutubxonayi Is'hoqiya"da ularning anchagini asarlari, hatto "Islom ensiklopediyasi"ning ko'pgina jiddlari, dunyo olimlari e'tiborini qo-

<sup>13</sup> Is'hoqxon Ibrat. Tarixi Farg'ona. Qo'lyozma. O'zR FA SHI Qo'lyozmalar fondi. inv. 11080, 4-bet.

zongan Herman Vamberining “O’rta Osiyoga sayohat” kabi asarlari bor edi...

Is’hoqxon Ibrat “Tarixi Farg‘ona” asarida Amir Umarxon davrini qalamga olar ekan, uning shoirlilik iqtidoriga yuqori baho beradi, uni “jannatmakon”, odil xon sifatida ta’rif-tav-sif etadi. Mutafakkir o‘z asarida Umarxon davrini ilm-fan, adabiyot va san’at, madaniyat rivojlangan davr sifatida baholaydi. Uning davrida ijod qilgan Fazliy Namangoniy, Hoziq, G’oziy, Sultonxon to‘ra Ado, Xijlat, Afsus, Gulxaniy, Maxmur, Behjat, Fitrat, Nodir, Xotif kabi shoirlar hamda Uvaysiy, Nodirabegim kabi shoiralalar haqida qimmatli ma’lumotlar, asarlaridan namunalar keltiradi.

Amiriyl topshirig‘iga binoan Fazliy Naman-goniy tomonidan tuzilgan “Majmuayi shoiron” tazkirasini (*mashhur tazkiraning litografik bosma nusxasi “Kutubxonayı Is’hoqiya”da bo’lgan. — U.D.*) yuqori baholaydi. Shu bi-

lan birga, davr shoiralari asarlaridan ham namunalar keltiradi.

Is'hoqxon Ibrat XIX asrning birinchi yar-mi — Muhammadalixon hukmronlik qilgan davrni qalamga olar ekan, o'zbek xalqi hayoti, madaniyati tarixida o'chmas iz qoldir-gan 1842-yilgi mudhish voqealarni chetlab o'ta olmaydi. Ma'lumki, Buxoro amiri Nas-rullo Qo'qonga bostirib kirib, shaharni talagan, xalqni xonavayron qilgan edi. Muallif "Tarixi Farg'ona" asarida buyuk shoira, mutafakkir Nodirabegim hayoti va faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradi, shu bilan birga, o'sha mash'um voqealar shohidlari fikr-mulohazalariga e'tiborni qaratadi, amirning Qo'qonda uyushtirgan qirg'iniga alohida to'xtaladi: *"Ey zolim! Atosi senga osiy bo'lgan, bu norasida nima gunoh qildi, berahm zolim, qizil qonga bo'yading!.. Sen ham mendek nurichashmingdan ajrab,*

*xonavayron bo'l!" deb alfoz ila og'ziga nima kelsa qaytarmay, amirni hech pisand qilmay turganda, oni, yaqinlarini(ng) hammasini so'ydirgan ekan"<sup>14</sup>.*

Is'hoqxon to'ra Ibrat mazkur voqealarni bayon qilar ekan, faqat o'zining taassurotlarini yozish bilan cheklanib qolmaydi, ayni paytda o'sha davr shoirlarining bu mash'um voqeaga bag'ishlangan marsiya va ta'rixlaridan namunalalar keltiradi. Bu esa asarning ham badiiy, ham ilmiy qiymatini yanada oshirgan. Amir Nasrulloning fojiali qilmishidan qattiq nafratlangan xalq uni "Botir qassob" deb atadi deb yozadi Is'hoqxon Ibrat.

Is'hoqxon Ibrat ham muarrix olim sifatida "Tarixi Farg'ona" asarida tarixiy voqealarga uzoqni ko'ra bilgan bek va siyosiy arboblarning munosabatini tasvirlashga alohida e'tibor beradi.

---

<sup>14</sup> Yuqoridagi asar, 54-bet

Tarixchi-olim Is'hoqxon Ibratning ushbu “Tarixi Farg‘ona” asarida Qo‘qon xonligida hukmronlik qilgan xonlar faoliyati xronologik izchilllikda bayon qilinadi. Muallif, ayniqsa, Qo‘qon xonligining so‘nggi hukmdori Xudoyorxon davriga, uning xon sifatidagi faoliyatiga kengroq to‘xtaladi. Is'hoqxon o‘z asarida qipchoq qirg‘ini voqeasiga alohida e’tiborni qaratadi. Xudoyorxon va, ayniqsa, xonlik ma’muriyatidagi katta mansabdorlar mingboshi Musulmonqlni Bilqillamada tor-mor keltirib, uni va unga tegishli odamlarni o‘ldirish bilan cheklanmaydilar, ko‘plab begunoh qipchoqlarni qilichdan o‘tkazadilar. Axir, qipchoqlar ham o‘zbekning 92 urug‘idan biri-ku!

Is'hoqxon Ibrat “Tarixi Farg‘ona” asarida o‘lkaning ham siyosiy, ham ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan yirik Turkiston va Toshkent shaharlarining rus kolonizatorlari tomonidan

bosib olinishi voqealarini qalamga olar ekan, o‘zining dard-u alamlarini, afsus-nadomatlarini ifodalashda Ahmad Yassaviyning sakkiz yuz ellik yil oldin o‘kinch bilan bashorat qilib aytgan so‘zlarini keltiradi:

*Dar soli “g‘urof” agar bimoni, bini,  
Mulk-u malik-u millat-u din  
bargardad<sup>15</sup>.*

Forsiy bayt mazmuni: “g‘urof” yiligacha yashasang, mulk, podshoh, millat va dinning qo‘ldan ketganini ko‘rasan.

Arabcha “g‘urof”dagi harflar (g‘, r, o, f) abjad hisobi bo‘yicha yig‘indisi 1282-hijriy, 1865-milodiy yilini tashkil etadi. Bundan Toshkent shahrining ruslar tomonidan bosib olingan sana kelib chiqadi.

Yoki Ahmad Yassaviy Turkiston shahringning bosib olinishi haqida shunday bashorat qilgan ekan:

<sup>15</sup> Is’hoqxon Ibrat. Tarixi Farg‘ona. 122-bet.

*Ming ikki yuz sakson birda o'russ kelgay,  
Turkistonni(ng) atrofini qamsab olg'ay.*

Is'hoqxon to'ra Ibrat mazkur yilnomasida Qo'qon xonligining Rossiya tomonidan bosib olinishi va u keltirgan fojialar, ruhiy iztiroblar tasviriga keng o'rin bergan. biz mazkur o'rinda faqat bir voqeа tasviri bilan cheklanamiz.

Xalqimiz tarixida xalq, Vatan mustaqiligi uchun so'nggi imkoniyatiga qadar rus bosqinchilariga qarshi qahramonlarcha kurashib, oxir-oqibatda, Xudoyorxonidan yordam so'rab borgan Kitob hokimi Jo'rabeck Qalandarqori o'g'lini va Shahrисабз hokimi Bobobek Hakimbek o'g'lini bandi qilib, Kaufmanga yuboradi. Ehtimol, Xudoyorxon bunga majbur bo'lgandir, uning davlati ham XIX asrning 60-70-yillarida qil ustida turgandek edi.

Qo'qon xonligi bosib olingach, o'zbek davlatchiligining so'nggi hukmdorlaridan biri Xudoyorxon Sherelixon o'g'li Orenburgda uy

qamog‘ida saqlangan vaqtida ko‘p xo‘rliklarni ko‘rdi, chet ellarda uning boshiga katta tashvishlar tushdi. Jahongashta muarrix Is’hoqxon Ibrat chet ellarda xonning so‘nggi nafasiga-cha birga bo‘lgan, mehr-oqibat ko‘rsatgan vatandoshlari bilan yaqin muloqotda bo‘lgan, ularidan qimmatli dalillar olgan, ular “Tarixi Farg‘ona” asarida o‘z ifodasini topgan: “*Andxo‘ylik Muhammadjon hoji yaxshi parvo qilib turganda, o’shal betobligidan sihat bo‘lmay, axiyri 1299-hijriy (1882-milodiy) yilida Karruxda vafot bo‘ldilar... O’shal xodim andxo‘ylik: “O’zim qo‘limda qo‘ydim”, — der edi*”<sup>16</sup>.

Aytish kerakki, Is’hoqxon Ibrat Xudoyorxon vafoti sanasi va joyini eng aniq va ishonchli dalillar asosida “Tarixi Farg‘ona” asarida ko‘rsatib berdi. E’tibor bering, sovet hukumati xalqimizni, hatto tarixchilarimizni

<sup>16</sup> Yuqoridagi manba, 138-bet.

ham millatimiz, Vatanimiz tarixidan shu qadar uzoqlashtirib yubordiki, o'zbek davlatchiligi-ning so'nggi hukmdorlaridan biri, qariyb 30 yil Qo'qon xonligini boshqargan Xudoyorxon Sheralixon o'g'li haqidagi kichkina maqolasida sho'ro davrining e'tiborli nashri "O'zbek sovet ensiklopediyasi" "tug'ilgan va o'lgan yillari no-ma'lum"<sup>17</sup> deb yozishdan uyalmadi.

Xalqimizda "Sulton suyagini xo'rلamas" degan purhikmat maqol bor. Biz 130-135 yil davomida tariximizni, sultonlarimizni unutdik, ularni xo'rлab keldik. Tarix bizni kechirmadi: 130 yil vatanjudolikka mahkum etdi. Allohga ming qatla shukrki, istiqlol, mustaqillik tufayli shoh-u amirlarimiz, xonlarimiz, vatandoshlarimiz e'tiborini hech bir oshirmay yoki kamsitmay o'z o'rniga qo'yish, ularni e'zozlash imkoniyatiga ega bo'ldik.

---

<sup>17</sup> O'zbek sovet ensiklopediyasi. 12-tom. — T.: 1979. 398-bet.

Is'hoqxon geograf olim sifatida "Tarixi Farg'ona" asarida Farg'ona vodiysi, undagi shahar va qishloqlarning to'la geografik tavsi-fini beradi: ularni o'rab turgan qo'shni viloyat-lar, tog'lar, u yerdan oqib o'tadigan daryo va soylar, iqlimi, havosi, yerlari, hayvonot dun-yosi, vodiyda yashaydigan xalqlar, ularning hunarmandchiligi, ekinlari, savdo-sotiq ishlari va yerosti qazilma boyliklarigacha atroflicha to'xtalib o'tadi.

Asarda Farg'ona vodiyisining bir qancha shahar va qishloqlari haqida to'liq geografik va etnografik ma'lumotlar beriladi. Ayniqsa, Qo'qon, Andijon, Namangan shaharlarining vujudga kelishi, nomlanishi, umuman, ular haqidagi etnografik ma'lumotlar, geografik tafsiflar e'tiborga loyiq. Is'hoqxon Ibrat-ning "Tarixi Farg'ona" asarigacha yaratilgan ko'pgina tarixiy asarlarda bunday geografik, etnografik, iqtisodiy tafsilotlar muarrixlarning

e'tiboridan tashqarida bo'lgan (bundan Zahiriddin Boburning "Boburnoma" asari mustasno). Is'hoqxon to'ra, umuman, Farg'ona vodiysi shahar va qishloqlari iqtisodiy hamda ma'naviy boyliklarini mukammal biluvchi olim sifatida ko'zga yaqqol tashlanadi. Asar muallifining yana bir katta yutug'i shundaki, u o'z asarini sodda, o'sha davr o'zbek adabiy tili me'yoriga iloji boricha to'la rioya qilgan holda yaratgan. Uslubi, tasvirlash doirasining kengligi jihatidan "Tarixi Farg'ona" Boburning buyuk "Boburnoma" asari ta'sirida yozilganligi sezilib turadi. Shuningdek, Farg'ona vodiyisi shaharlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlар, Rusiya bosqinidan keyin ham siyosiy, ham madaniy markazga aylangan Toshkent shahri bilan munosabatlari tarixiy dalillar asosida aks ettirilgan.

1913-yilning iyul oyida Toshkentda ruslar tomonidan tashkil etilgan arxeologiya ha-

vaskorlari to‘garagi Axsi shahri tarixiga ba-  
g‘ishlangan ilmiy anjuman uyuştiradi. Yirik  
tarixchi-olim sifatida taklif qilingan Is’hoqxon  
Ibrat ham anjumanda katta ma’ruza bilan qat-  
nashadi va uning ma’ruzasi matni “Turkis-  
ton viloyatining gazeti”ning 1913-yilgi qator  
sonlarida bosilib chiqadi. Gazeta tahririysi  
qoidasiga binoan maqola o‘zbekcha bo‘lsada,  
ruscha “Istoriya drevnego goroda Axsi v  
Ferganskoy oblasti” sarlavhasi bilan e’lon qi-  
lingan. Mazkur maqola hajmi, qimmatli faktik  
materiallar va mazmun e’tibori bilan boshqa  
mualliflar maqolalaridan ajralib turadi. Is’hoq-  
xon Ibrat mazkur maqolasida Axsi shahrining  
qayerda joylashgani, uning bir vaqtlar ancha  
gullagan shahar bo‘lganligi, qay vaqtida va  
nima sababdan vayron bo‘lgani, keyingi vaqt-  
larda uning o‘rnida qanday qishloqlar vujudga  
kelgani haqida tarixiy-ilmiy asarlarga, faktik  
materiallarga, arxeologik topilmalarga asosla-

nib fikr yuritadi. Is'hoqxon o‘z maqolasida tarixchi-olim Shamsiddin Somiyning “Qomus ul-a’lom”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlariga murojaat qiladi. Is'hoqxon Ibrat Axsi shahri, uning hozirgi o‘rni, bu shahar tarixiga oid biror risola yaratish zarurligi haqida quyidagilarni yoza-di: “*Farg‘ona oblastida qadimgi zamonalarda poytaxt bo‘lib turgan Axsi yoki Axsikent degan katta shahar bo‘lgan ekan. Bu kunlarda mazkur shaharning o‘rni va asorati yaxshi ma'lumdur. Chunki Namangan uyezdiga tobe*”, xuddi Namangan shahridan 15 chaqirim masofada, Axsi bo‘lustida daryo labida bir necha qishloqdin iboratdur. Bul xususda tarix kitoblardan mazkur Axsikent xususida xabar olib, tarix uchun biror risola qilmoq lozimdir. Qaysi xon, qaysi beklar ul shaharda hukumat qilgan va fuqarolari-ni(*ng*) maishati qay tariqada bo‘lgan va qay

*vaqtida qay sabablar ila ul shahar vayron va xarob bo‘lgan va nima uchun ul joyda hech kim turolmagan? Yiqilgan devorlar va imorati yer ostig‘a ko‘mulub qolgandurmu?”<sup>18</sup>*

Is’hoqxon Ibrat muammoni yechish uchun tarixiy manbalarga, ayniqsa, mazkur shahar xarobalariga murojaat qiladi. U bu xarobalarda bir necha kunlab yakkash arxeologik tekshirish ishlarini olib boradi, xalqimizning o‘tmish madaniy, iqtisodiy-siyosiy hayotini qisman bo‘lsada, ifodalovchi ashyolar, turli davrlarga mansub tangalar, buyumlar, etnografik ma’lumotlar topishga muyassar bo‘ldi. Is’hoqxon to‘ra mazkur ma’lumotlar, topilmalar va o‘zidan ilgari o‘tgan tarixchi olimlarning mo‘tabar asarlariga asoslanib, Aksi arab istilolaridan ancha ilgari vujudga kelgan va uzoq vaqt siyosiy-madaniy markaz bo‘lib turgan degan ilmiy xulosani ilgari suradi. Maqolada Aksi shahrining keyingi taraqqiyo-

<sup>18</sup> Tukiston viloyatining gazeti. 1913, 48-son.

ti, Umarshayx Mirzo va Bobur Mirzolar davri madaniy muassasalari, xalqning hunarmandchiligi, dehqonchiligi haqida ham fikr yuritiladi. Shu bilan birga, chuqur ilmiy faktlarga asoslangan holda Umarshayx va Bobur Mirzolar hayotiga oid fikr-mulohazalar keltiriladi. Afsuski, ko'plab tarixchi-arxeolog olimlarimizning arab imlosini bilmasliklari oqibatida bo'lsa kerak, bunday ilmiy maqolalardan va, hatto, ba'zilar "Tarixi Farg'ona"dek fundamental asardan hauuz xabardor emaslar.

**Mutafakkir "Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat", "Mezon uz-zamon" asarlarida ham o'zining pedagogik-ma'rifatparvarlik qarashlarini ilgari surdi.** Tarixchi-olim Is'hoqxon chet el sayohati davomida texnika va ilm-fan, madaniyat rivojlangan shaharlarda bo'ldi. U Turkiston shaharlarining ham zamonaviy, madaniy shaharlar qatoridan o'rin olajagiga ishondi. Buni amalga oshirishning

birdan-bir yo‘li ilm-ma’rifat, o‘qish-o‘rganishda deb bildi: “*Bizning Rusiyada Petrograd, Maskov, Ades (Odessa) va shunga o‘xshash shaharlar bor. Fransiyada (G‘arbda demoq-chi. – U.D.) Faris, Berlin, Vena va Madrid, London, Rumo, Vashington, Sharqda Tokio, Istanbul. Mundan bo‘lak necha-necha shaharlar bor, o‘zi kichkina bo‘lsa ham, madaniyat topgan. Bu madaniyat shaharlari madaniyatni nima birlan topgan? Ilm birlan, o‘qub. Madaniyatni topadurgan va yurguzadurgan asbobi – ilmdur*”<sup>19</sup>.

Is’hoqxon o‘zining amaliy faoliyatida ham, ijodida ham qishloq bilan shahar munosabatlarga katta e’tibor berdi. U shunday xulosaga keldiki, qishloq bilan shaharni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi, ularni bir-biriga bog‘liq holda rivojlantirish kerak. Shuning uchun ham

---

<sup>19</sup> Is’hoqxon Ibrat. Tarixi madaniyat. Qo‘lyozma. O‘zR FA SHI Qo‘lyozmalar fondi. inv. 11616, 112-b.

u shaharlar bilan bir qatorda qishloqlarda ham ilm-ma'rifat, madaniyat o'choqlarini vu-judga keltirish, erlar va ayollar, o'g'il va qiz bolalar uchun maktablar ochish masalasiga katta ahamiyat berdi. Is'hoqxon Ibrat o'zining "Tarixi madaniyat" asarida qishloq ishlari tugagach, gapma-gap yuruvchi dehqon yigitlarini kechki maktablarga tortish, otanonalar o'rtasida tushuntirish ishlari olib borish, ta'lim-tarbiyaga oid darsliklar, risolalar, gazeta va jurnallar chiqarib turish kabi masalalar majmuasini ko'tarib chiqdi.

\* \* \*

Is'hoqxon Ibrat o'z xalqining porloq kelajagiga, ozod hayot qurajagiga zo'r umid va ishonch bilan qaradi. U Vatanining kelajakda ilm-fani, madaniyati rivojlangan shaharlari qiyofasini romantik bo'yoqlarda tasvirlaydi:



“Madaniy shaharlar shunday bo‘lurki, anda dorilmuallimin madrasalar va anvoi funun maktablar (oliy o‘quv yurtlari. — U.D.), har xil ilm va hunarlar, katta do‘xtirlar, tabiblar va mazlumi zolimdan himoya qiladurgan hokimlar o‘z shaharlarda bo‘lur. Qo‘l hunarlaridan hamma xillari to‘qiladurgon nimarsalar, anvoi asbob o‘z shaharlarda bo‘lub, bo‘lak kishilarga ehtiyoj bo‘lmasa hamda ul shaharda zavodlar, otash kemalar va foyizlar va ko‘nkalar elektr ilan barpo bo‘lsa. Ham ul shaharda har kuni yurub turadigan foyizlar, chirog‘, shamol sandal bo‘lsa, katta maktablar bo‘lsa, zavodlar ovozi har kuni necha martadan eshitulub tursa, bir nimarsaga ehtiyojmand bo‘lub chiqsa kishi, darhol topilsa, telefonogramlar bo‘lsa, shaharlardan ozoda, changdan, bo‘yi baddan toza bo‘lsa, qaysi ilmni xohlasa, ani ta‘lim beradurgan muallimlar bo‘lsa, ahli ilmlarning qadri yax-

shi bo'lsa, nodonlarni o'z holiga qo'ymasa, fikr va ilm va hunar o'rgatsa, har kishi o'z ishiga mashg'ul bo'lub, bekor ko'chalarda va samovarlarda o'lturmasa, kasallar oh-zor qilmay va yotmay iloj qiladurgan hakimlar tayyor bo'lsa, yo'qotgan narsalarni omonatxonaga ahli bexilof topshirsa, kechalar ham kunduz kunidek savdo-sotiqlar bo'lsa..."<sup>20</sup>

E'tibor bering, Is'hoqxon Ibrat ta'lim-tarbiyaning, madaniyat va taraqqiyotning umumiytizimi haqida gapiryapti: boshlang'ich maktablar ham, kasb-hunar maktablari (kollejlari) ham, hatto oliv o'quv yurtlari ham muallif diqqat markazida.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Is'hoqxon to'ra Ibrat shariat-din ahkomlarini mukammal biluvchi arbob sifatida yigirma yildan ortiq vaqt davomida To'raqo'rg'on va Namangan xalq qozisi lavozimida faoliyat ko'rsatdi. **Shu**

---

<sup>20</sup> Yuqoridagi asar, 113-114.-betlar

**nuqtayi nazardan, uning faoliyatida “Mezon uz-zamon” (“Zamon tarozusi”) islo-miy-ta’limiy risolasi alohida o‘rin tutadi.** Olim mazkur asarida yangi zamondagi evrilishlar va ularga millatdoshlarining munosabati masalasiga e’tiborni qaratadi. Is’hoqxon to‘ra har qanday zamonda har bir musulmon “zamon tarozusi”ga ega bo‘lmog‘i lozimligini, zamondan orqada qolish musulmon uchun ayb ekanligini, zamon bilan hamqadam bo‘lish uchun esa ilm-ma’rifat darkorligini alohida ta’kidlaydi.

Asar shartli ravishda to‘qqiz mezondan tashkil topgan. Har bir mezonda muayyan masala tahlil etiladi. Jumladan, birinchi mezonda yangi paydo bo‘lgan narsa-buyumlarga munosabat masalasi tahlil etiladi. Adib juz’iy so‘zlar ustida janjal qilib yurgan ulamolarni ummat va millat xizmatini qilmoqqa chaqiradi. Ikkinchi mezon millatni turli firqalarga ajra-

lishdan qaytarish, ular o'rtasidagi ziddiyatlar-ni bartaraf qilish, ittifoq va ittihodga chaqirish mavzuiga bag'ishlangan. Adib bu mezonda odamlarning ittifoq bo'lib yashashlari zarurligi haqidagi "Qur'oni karim" oyatlaridan va "Hadisi sharif" da'vatlaridan keltiradi, ularni sharhlaydi. Uchinchi mezon sudxo'rlik va tijoratda xiyonat masalalariga bag'ishlangan. Bu illatlar millat tanazzulining bosh omillari sifatida talqin etilgan. To'rtinchi mezonda ilm va tafakkur haqida, avlod tarbiyasi va usuli savtiya mакtablarining millat hayotidagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan. Is'hoqxon Ibrat ham ilmiy, ham badiiy asarlarida, ham amaliy faoliyatida bo'lganidek, jadid mакtablarining ahamiyatini hayotiy misollar bilan isbotlab berdi. Beshinchi mezonda xalqimizning avvalgi davrlardagi harakatlari va yangi zamonda-gi ishlari xususida bahs qilingan. "...Asrimiz ilm-u hunar, harakat asridur, — deb yozadi adib, — turmoq asri emas. G'ofil tursa, g'af-

*lat uyqusidin turguncha, bozori olam o‘tub ketadur. O‘rganmoq darkor. E’tibor qilinglar, ey oqillar!”*

Oltinchi mezon bid’at va ortiqcha sarf-xarajatlarga ruju qo‘yish, fiksizlik illatlarining muolajasi xususida. Yettinchi va sakkizinchi mezonlar libos borasidagi munozaralar xususida, o‘sha davrdagi odamga emas, libosga ixlos qo‘yishning, dunyoparastlikning yomon oqibatlari haqida. To‘qqizinchi mezonda o‘tmish va zamon voqealari muqoyasa qilinadi, muhim xulosalar chiqariladi.

Asar matni ustidagi kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, u tugallangan emas. Lekin shu holda ham “Mezon uz-zamon” Is’hoqxon to‘ra Ibrat asarlari ichida o‘ziga xos o‘rin tutishini anglash mumkin.

Is’hoqxon to‘ra Ibratning diniy-axloqiy asarlaridan yana biri “Fiqhi Kaydoniy” asarining “Fiqhi Kaydoniy nazmi” nomli erkin

tarjimasidir. Asar muallifi Lutfulloh Nasafiy Fozil Kaydoniy XIII asr oxiri va XIV asrning birinchi yarmida Movarounnahrda yashab ijod qilgan bo'lib, uning bizgacha faqat "Fiqhi Kaydoniy" asari yetib kelgan. Uning tug'ilgan yili noma'lum, 1349-milodiy yilda vafot etgan. Fiqh — din, shariat qonun-qoidalari, musulmon huquqi haqidagi fan. Kaydon, manbalarda ko'rsatilishicha, Nasaf (Qarshi) yaqinidagi qishloqlardan birining nomi. "Kaydoniy" Lutfulloh Nasafiy nisbasidir. U hanafiy mazhabiga mansub olimdir. Lutfulloh Nasafiy "Fiqhi Kaydoniy" asarida namozga oid masalalarni hanafiy mazhabi qoidalariga muvofiq batatsil bayon qilib bergen. Muallif o'z asarini islom an'anasiga muvofiq Allohga hamd-u sanolar, payg'ambarimiz Muhammad (sallallohu alayhi vasallam)ga salavotlar bilan boshlaydi. Shundan keyin namozga oid farz, vojib, sunnat, mustahab, muboh (ruxsat etilgan

ish), harom, makruh, mufsid (fasod, buzuq), shar’iy hukmlarga ta’rif beradi. Hatto maktab va madrasalarda domlalar bolalarning namoz qoidalarini bajarishida shu asarga asoslangan-lar. Shuning uchun ham unga nisbatan ehtiyoj katta bo‘lib, olti asr davomida madrasalarda fiqh ilmidan asosiy darslik sifatida mavqega ega bo‘lgan, unga amal qilingan, musulmon dunyosida, jumladan, O‘rtta Osiyoda eng ko‘p ko‘chirilgan va keyinchalik chop etilgan asarlar sirasiga kiradi.

**Publitsist, matbaachi va noshirlik faoliyati.** XX asr o‘lkamizga buyuk shiddat bilan kirib keldi. U hayotimizda chuqur ildiz otgan o‘rtta asrchilik, feodal qoloqlik, jaholat, turg‘unlik, diniy mutaassiblikni, buning ustiga, mustamlakachilikni butun qabohati bilan ochib tashladi, islom dini ahkomlarini to‘g‘ri tushunish va talqin qilishga ehtiyojni kuchaytirdi. Maorif, adabiyot va san’atda ham tub sifat

o'zgarishlar sodir bo'la boshladi: milliy dramaturgiya, teatr va matbuot vujudga keldi, tabiiy fanlarni o'rganishga ehtiyoj kuchaydi. Bunday buyuk o'zgarishlar zaminida milliy uyg'onish, o'zlikni anglash, istiqlol g'oyasi yotar edi. Bu g'oyaning rahnamolari o'z davrining ulug' mutafakkirlari — jadidlar edilar. Ular chet ellarda ta'lim olgan, yoki taraqqiy etgan mamlakatlar-da uzoq muddat yashagan, o'qigan, Sharq va G'arb ma'rifati, ma'naviyatini egallagan, ilmga chanqoq yoshlар edilar. Ular mustamlaka zulmi iskanjasida xarobaga aylanib borayotgan ona Vatan jarohatlariga malham izladilar. Ular, birinchi navbatda, maorifni, maktab va madrasalarni, ularda o'qitish usullarini tubdan isloh qilish, millatni ma'nан uyg'otish uchun kуrash olib bordilar. Jadid mutafakkirlari o'zbek xalqining ming yildan ortiq taraqqiyot tarixiga ega bo'lган tafakkur gulshanidan bahra oldilar, umuminsoniy qadriyatlarga asoslandi-



lar, shu bilan birga, turk dunyosi xalqlarining ma’naviy rahbari Ismoilbek Gasprinskiyning o‘qish-o‘qitish, maktab va madrasa islohotiga oid fikrlari ta’sirida bo‘ldilar, ozarbayjon xalqining hurfikrli demokratlari Aliakbar Tohirzoda — Sobir, Jalil Mamadqulizodalar bilan yaqindan hamkorlik qildilar. Ularning “Mulla Nasriddin” jurnali, “Xo‘p-xo‘pnomma” majmuasi o‘zbek ziyolilari o‘rtasida katta shuhrat qozondi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida mamlakatimizda madaniy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy tafakkur taraqqiyotida matbuot, nashriyot va matbaalar muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Publitsistika milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining eng ilg‘or, hozirjavob janriga aylandi. U ancha mas’uliyatli, ta’sirchan, ommaviy, shu bilan birga, o‘zbek adabiyoti uchun nisbatan yangi janr bo‘lishiga qaramay, ma’rifatparvarlarning jangovar min-

bariga aylandi. Shuning uchun ham Is'hoqxon to'ra Ibrat qator publitsistik maqola va she'rлаrida matbuotning xalq ma'rifiy-madaniy, siyosiy hayotidagi ahamiyatiga yuksak baho berdi. **U boshqa ma'rifatparvarlar kabi o'z she'r va maqolalarini o'zbek tilidagi ilk matbuot organi bo'lmish "Turkiston viloyatining gazeti"**da e'lon qildi, keskin munozaralarда faol ishtirok etdi. Ma'lumki, ushbu gazeta chor Rossiyasining Turkiston o'lkasidagi mustamlakachilik siyosatini mustahkamlash, yerli aholini ruslashtirish, ularni tobelikda, tutqunlikda saqlash maqsadida tashkil etilgan edi. Bu gazeta o'ta qabih, o'ta salbiy maqsadlarni amalga oshirishni ko'zlagan bo'lsa-da, milliy uyg'onish harakatining yetakchi namoyandalari hali jadid gazeta va jurnallari dunyo yuzini ko'rmagan bir paytda bu gazeta sahifalaridan millat manfaatlari yo'lida, o'zlarining orzu-armonlarini xalqqa yetkazishda minbar sifati-

da foydalandilar. Shuning uchun ham ushbu gazeta o‘zbek publitsistikasi va jurnalistikasining ilk sahifasi hisoblanadi. Komil Xorazmiy, Sattorxon Abdug‘afforov, Muhiddinxo‘ja qozi Hakimxo‘ja qozikalon o‘g‘li, Sharifxo‘ja qozi Poshshoxo‘ja o‘g‘li, Rojiy Marg‘inoniy, Furqat, Saidrasul Saidazizov kabi Milliy uyg‘onish davrining dastlabki namoyandalari — yangicha ma’rifatparvarlik oqimining rahnamolari ushbu gazetada o‘z maqolalari, she’rlari bilan faol ishtirok etganlar. Shular qatorida Is’hoqxon to‘ra Ibratning dastlabki publitsistik maqola va she’rlari mazkur “Turkiston viloyatining gazeti” sahifalarida bosildi.

Is’hoqxon Ibrat ham bu janrda qalam tebratdi va hajm, mazmun, mavzu e’tibori bilan diqqatga sazovor publitsistik maqolalar, she’rlar yaratdi. Uning biz to‘plagan maqolalari ellikdan oshiq bo‘lib, shulardan taxminan 30 tasi “Turkiston viloyatining gazeti” sahifalarini-

da bosilgan. Is'hoqxon Ibrat publitsistikasining asosini ma'rifatparvarlik g'oyalari tashkil etadi. U dastlabki maqolalaridan boshlab mehnatkash xalq boshidagi og'ir mustamlakachilik zulmini fosh etishga, xalqni ma'nан uyg'otishga harakat qildi. Shuning uchun ham Ibrat feodalizm inqirozini o'zida to'la mujassamlashtirgan, asrlar davomida hech bir ijobiy o'zgarishsiz kelayotgan eski sxolastik ta'lim-tarbiya, o'quv-o'qituv tizimiga qarshi kurash boshladi. Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingan, Yevropa ilm-fan, maorif va madaniyatda yuksak pog'onalarga ko'tarilgan bir davrda Turkiston o'lkasida ta'lim-tarbiya o'ta ibtidoiy darajada davom etib kelmoqda edi. Chor huminati va Turkistonda cheksiz huquqlarga ega bo'lgan general-gubernatorlik bu borada biror ijobiy ishni amalga oshirmadi, aksincha, pedagogika — maktab-madrasa sohasidagi har bir ijobiy yangilikka tish-tirnog'i bilan qarshilik

qildi, har qanday yangi maktabning ochilishi rus chinovniklari tomonidan ming xil to’siqlar qo‘yildi. Bu ham kamlik qilganidek, “usuli qadim” tarafdorlari, Qur’oni karim sura va oyatlarining, Hadisi sharif da’vatlarining asl mohiyatini tasavvur ham qila olmaydigan mutaassib din peshvolari mustamlakachilar tegirmoniga suv quyar edilar. Shuning uchun ham har bir jadid maktabining ochilishi va bu maktablar uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalarning yaratilishi buyuk jasorat va fidoyilik namunasi edi. Shu ma’noda jadid shoiri Tavalloning “Kimni sahnada ko‘rsang, jasorati bu” so‘zlari nafaqat sahna san’ati namoyandalariga, bevosita jadid pedagoglariga, maktabdorlariga, mualliflariga ham taalluqli edi.

O‘zbek mutafakkirlari — jadidchilik harakatining M.Behbudiy, Munawvarqori, Is’hoqxon Ibrat, Siddiqiy Ajziy, Abdulla Avloniy kabi sardorlari o‘z vatanini mustaqil, xalqini



rivoj topgan xalqlar bilan teng ko'rishni orzu qildilar hamda bu orzularini amalga oshirishda maktab va madrasalarni tubdan isloh qilish masalasiga butun kuch va g'ayratlarini, bilimlarini, hatto mol-mulklarini, kerak bo'lganda, jonlarini ham baxsh etdilar. Ular faoliyatlarini o'zaro hamkorlikda, hammaslaklikda, ya-qin aloqa bog'lagan holda yo'lga qo'ydilar. **Is'hoqxon Ibrat Toshkent jadidlari rahbarlik qilgan "Taraqqiy", "Tujjor", "Sadoyi Turkiston" "Al-Isloh" gazeta va jurnallarida, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Oyina" jurnalida, Obidjon Mahmudovning "Sadoyi Farg'ona" gazetasida she'r va maqolalari bilan faol ishtirok etdi.** U Munavvarqorining taklifiga binoan bir necha marta Toshkentda, uning maktabi imtihonlari-da ishtirok etdi, ular haqida turkum maqolalar e'lon qildi. 1907-yilda **Munavvarqori Is'hoqxon to'raga maxsus "Da'vatnomma"** bilan murojaat qiladi:



*“Hurmatlu Is’hoqxon hoji janoblarina! 1907-yil may oyindan e’tiboran Toshkantda Tarnovboshi mahallasidagi “Xoniya” mакtabinda talabalarni(ng) yillik imtihonlari boshlanur. Siz, hurmatludan rijo qilurmizki, tavobeingizda bo‘lg‘on usuli jadidiya maktablari mudirlari ila imtihon majlislari na tashrif qilsangiz, muallim va shogirdlar Sizdan mamnun bo‘lur edilar.*

*Muhibingiz Munavvarqori.*

*15-mart, 1907-yil”.*

Bu taklifga binoan Is’hoqxon Ibrat o‘z yaqinlari Husayn Makayev (*Is’hoqxon ochgan mакtabda rus va, keyinroq, nemis tillaridan dars bergen tatar pedagogi. — U.D.*), shogirdi Mulla Iskandar Abduvahob o‘g‘li bilan yarim oyga yaqin Toshkentda bo‘ladi, usuli jadid maktablarida Munavvarqori joriy qilgan imtihon marosimlarida ishtirok etadi, Munavvarqori va Abdulla Avloniy yaratgan darsliklar

bilan tanishadi, “usuli jadid” maktablari bilan bir qatorda Toshkentdagি “usuli qadim” maktablarida ham bo‘ladi va o‘z munosabatlarini, tanqidiy qarashlarini “Turkiston viloyatining gazeti” sahifalarida turkum maqolalarida e’lon qiladi. Ma’lumki, **Munavvarqori o‘zbek mutafakkirlari orasida “usuli savtiya” metodiga asoslangan jadid maktablarining birinchi tashkilotchisidir.**

Ilg‘or pedagoglar XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, “usuli qadimiya”ga qarama-qarshi davr talablariga javob bera oladigan, zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlari bilan qurollangan “usuli jadidiya” maktablari ni vujudga keltira boshladilar, xotin-qizlarni ma’rifat nuridan bahramand qilish g‘oyalari bilan chiqdilar, bu g‘oyalarni o‘z amaliy faoliyatlariga ham tatbiq qildilar. Is’hoqxon Ibrat yangi maktablarni olqishlabgina qolmay, ularni “usuli qadim” tarafdarlaridan qattiq turib

himoya qildi. Bu o'rinda 1907-yilda Is'hoqxon Ibrat bilan Toshkent shahar Sebzor da-hasidagi eski mактабдор Mulla Husanxo'ja o'rtasida kechgan munozara ancha diqqatga sazovor. Mulla Husanxo'ja domla o'z maktabini yengil-yelpi isloh qilib, "jadid mактabi" deb e'lon qiladi va bu haqda gazeta ma'muriyati quyidagilarni yozadi: "*Mulla Husanxo'ja Eshon o'g'li ushbu 1907-yilni(ng) birinchi sentabridan boshlab sartiya bolalariga o'qidatdurg'on usuli qadimiyamizni usuli jadid tartibiga olib, jamoa-jamoa qilib o'qidatur. Choraki, mazkur tariqa tartibida mактаб bolalarini(ng) tez fursatda savodlari chiqib, ko'b foydalar hosil bo'lur ekan. Birinchi jamoa "Haftiyaki sharif", ikkinchi jamoa "Kalomi sharif", uchinchi jamoa "Chahor kitob" bilan "Fuzuliy" yoki "Navoiy", to'rtinchi ja-*

*moa “Ilmi faroiz” o‘qub, muddati ikki yoinki uch yil miyonasida madrasalarda o‘qumoqni xohlaganlari madrasalarga chiqib o‘qumoqqa qodir bo‘lur ekanlar”<sup>21</sup>.*

Yuqoridagi so‘zlardan ma’lum bo‘ladiki, Mulla Husanxo‘ja domla o‘z maktabini “isloh” qilib, jamoa-jamoaga bo‘lib o‘qitishdan tash-qari hech qanday ijobiy o‘zgarish kiritmagan. Xalq farzandlarini savodli qilishda katta e’tibor qozonayotgan, “usuli savtiya” metodi asosida Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval”, Aliasqar Bayramali Kalinining “Muallim us-soniy”, Munavvarqorining “Adibi avval” alifbo va o‘qish kitobi darsliklari nashrdan chiqqan, Ismoilbek Gasprinskiyning “Xo‘jayi sibyon” alifbosi va “usuli savtiyayi tadrijiya” metodining xos xususiyatlarini ko‘rsatib bergen “Rahbari muallimin yoki muallimlar-

<sup>21</sup> Новый порядок в мактабе. // Turkiston viloyatining gazeti, 1907, 66-son.

ga yo‘ldosh” metodik qo‘llanmasi o‘lkamizda keng tarqalayotgan, hatto ba’zi bir pedagoglar ko‘chirib olayotgan, yangi o‘quv usullari vujud-ga kelayotgan bir paytda mazkur domla yosh bolalar ruhiyatiga, bilim saviyasiga mos kel-maydigan kitoblarni o‘qitishni davom ettiradi. Ushbu maktabning mohiyatini, eski sxolastik maktablardan hech qanday farqi yo‘qligini aniqlagan Is’hoqxon Ibrat Husanxo‘ja dom-ladan qattiq ranjiydi. E’tiborli tomoni shun-daki, Is’hoqxon Ibrat 1907-yili Toshkentga kelgan kunlari ushbu maktabni kuzatgan va o‘qituvchisi bilan suhbatlashgan. Husanxo‘ja domla o‘zining “Toshkent musulmon mak-tablari haqinda” maqolasida “usuli savtiya” metodiga asoslangan jadid maktablarini tanqid qiladi va eski, an’anaviy maktablarni nomiga isloh qilish — o‘quvchilarни kaltak bilan jazo-lash usulini bekor qilish, ularni jamoa-jamoa qilib o‘qitish va davomatni tartibga solish

talabi bilangina chiqdi. Faqat bularning o'zi o'quv-tarbiya saviyasini ko'tarishda sezilarli natija bera olmas edi. Chunki bunday maktablarda o'quv-tarbiya asosini o'quvchi tushunib yetmaydigan o'ta murakkab kitoblar, faqat diniy aqidalarni tushunmasdan quruq yodlash tashkil qilar, buning ustiga, ko'plab tavsiya etilgan kitoblar arab va fors tillarida edi. Shuning uchun ham Is'hoqxon to'ra Ibrat bunday maktablarning xalq bolalari umrini barbod qilishiga qalban achinadi: "*Muallim bechora aziz farzandlarimizni kaltak, qamchi yo'q bahonasi-la besh-o'n sanalar osmonga qaratib, "alif bezavar, bazavar" deb shovqin qildirib-qildirib, bir harf ham o'quv-yozuv bildirmay, umrlarini barbod qilib yotmoqqa taqviyatgina (quvvatlash, mustahkamlash) bo'ladur*"<sup>22</sup>.

---

<sup>22</sup> Новый порядок в мактабе. // Turkiston viloyatining gazeti, 1907-y., 66сон.

O‘qitish metodi butunlay yaroqsiz bo‘lgan bunday maktablarni yengil-yelpi isloh qilishga Is’hoqxon Ibrat keskin qarshi chiqdi va eski ta’lim-tarbiya hamda o‘qitish tizimiga doir yozgan tanqidiy maqolalarida eski maktablarni hasharot uyasiga o‘xshatib, shunday yoza-di: “*Bolalarni eski maktablar ila jamoalarg‘a taqsim qilib, kelish-ketish, kaltak ila qamchi mas’alalarin isloh qilmoq albatta lozimdur. Lekin o‘qulajak kitoblari — mazkur eski kitoblar, o‘qutajak domlalar — eski domlalar, maktablarda — eski hasharot uyalari bo‘lg‘ondin bu mas’alalar ming martabalab isloh etilsa-da bekor va behudadur*”<sup>23</sup>.

Xalq farzandlarining o‘n-o‘n besh yillab maktab va madrasa tuprog‘ini yalab, oxi-ri savodsiz yoki chalasavod bo‘lib chiqishlari Ibratni iztirobga soldi. Chunki uzoq yillar Sharq va G‘arb davlatlarida (musulmon dav-

<sup>23</sup> O’sha manba.

latlarida ham) ta'lim-tarbiya, ilm-fan sohasidagi buyuk o'zgarishlarni kuzatgan mutafakkir o'z vatanidagi hech bir o'zgarishsiz faoliyat ko'rsatib kelayotgan bunday maktablar millatni xarob qilishini tushunib yetgan va chet el-lardaligidayoq ularni tubdan o'zgartirish fikriga kelgan edi: “*Agar vijdon, insof ila muhokama qilsak, tavaqqufsiz va taraddudsiz eski maktablarimizni asoslaridan yiqib, joylariga tartib va intizom bilgan, yangi usul dom-lalarning himoyasida bo'lgan maktablar ochmak lozimdir. Eski maktabdorlarimizni dehqonchilik hunarlariga sahv etmak muvofiqi haqiqatdir*”<sup>24</sup>.

Is'hoqxon Ibrat maqolalarida eski ta'lim-tarbiya tizimiga keskin qarshi chiqar, “usuli savtiyayi tadrijiya” metodini targ‘ib qilar ekan, u, birinchi navbatda, o'zining amaliy pedagogik faoliyatiga, o'lkaza kirib kelayotgan ilg‘or pe-

---

<sup>24</sup> O'sha manba.

dagogik texnologiyalarga suyandi. 1907-yilda qishloq bolalari uchun ikkinchi marta eski maktablardan tubdan farq qilgan, bepul “usuli jadid” maktabi ochdi. Bu maktabda o‘z o‘g‘illari Abbosxon, Vaqqosxon, Fayozxon, qizi Vasilaxonni hamda 50 nafar qishloq bolalarini o‘qitdi. Maktab “Is’hoqiya bog‘i”dagi hashamatli binoda — katta, yorug‘, derazali xonaga joylashgan bo‘lib, u yangi o‘quv qurollari, asbob-uskunalari — parta, stol-stul, qora taxta (doska), bo‘r, kurrayi arz (globus), yangi kitoblar, darsliklar, daftar-qalamlar bilan jihozlandi va ta’minlandi, o‘qish-o‘qitish ishlarini o‘zi tuzgan dastur asosida olib bordi. Is’hoqxon Ibrat maktabda darslik va qo‘llanmalar sifatida Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval”, Aliasqar Kalininning “Muallimi soniy”, Munavvarqori Abdurashidxonovning yangi nashrdan chiqqan “Adibi avval”, “Adibi soniy” darsliklaridan, keyinroq rus tilidan

o‘zi yaratgan “Lug‘ati sitta al-sina”, “San’ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy” asarlaridan keng foydalandi. Is’hoqxon Ibrat “usuli jadid” maktabining nihoyatda katta afzalliklarini isbotlashda ko‘proq o‘zi erishgan yutuqlarga, o‘z amaliy faoliyatiga tatbiq qilgan yangi metodlarga asoslandi. Ibratning ushbu so‘zlariga e’tibor bering: “*Men ham o‘zimga qarashlik o‘nta-o‘n beshta bolalarmi(ng) eski maktabda hech bahra topmay yurduqlarina jonim achib, Qozon tarafindan bir mulla* (Husayn Makayev. — U.D.) *jalg edub, maktab qilib berdim. Maktabning kushodig‘a uch oy bo‘lgani yo‘q, yigirmadan ziyoda kichik bolalar tamom savodi chiqib, har narsani yozadurgan bo‘ldilar. To‘rt-besh, yetti-sakkiz sanalar Qo‘qonga yurub, hech narsa bilmagan mullavachchalar batamomihi arabiylar mukolamag‘a qodir bo‘lub, har bir kitoblarni mutolaa etadurgan bo‘ldilar. Shul sababdan biz ko‘zumiz ila tajriba qilib, bul o‘quish*



(*usuli savtiya*)ga tamom ixlos qildik”<sup>25</sup>.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu munozara endi dunyo yuzini ko‘rayotgan “usuli jadid” (“usuli savtiya”) metodi bilan “usuli qadim” (“usuli hijoziya”) metodi o‘rtasidagi kurashning boshlanishi edi. Bu munozara keyinroq jiddiy siyosiy kurashlarga aylanib ketdi.

Is’hoqxon Ibrat 1907-yildayoq o‘z maktabiga rus tilini o‘quv predmeti sifatida kiritgan, rus va nemis tillarini mukammal biluvchi tatar maorifchisi Husayn Makayevni rus tili o‘qituvchisi etib tayinlagan. Is’hoqxon Ibrat boshqa usuli jadid maktablarida ham shunday yo‘l tutishga da’vat etgan: “Agar rusiya ilmlarini bilmak darkor bo‘lgan holda o‘shal maktablarda rusiya muallimlaridan saqlab, biror dars rusiya ilmi va zabonidan ta’lim berilgan holda ancha naf olur edilar”<sup>26</sup>.

<sup>25</sup> Turkiston viloyatining gazeti. 1913, 38-son.

<sup>26</sup> O’sha maqola.

Is'hoqxon Ibrat o‘z mактабида haftalik dars jadvalini ishlab chиqqan: har 40 minutda qo‘ng‘iroq chalingan va 10 minutlik tanaffus joriy qilgan. Turkiston o‘lkasidagi boshqa usuli jadid maktablaridan farqli ravishda dars jadvaliga o‘qitiladigan kitob-darsliklar nomlari emas, o‘quv predmetlarining nomlari ko‘rsatilgan, hatto dars jadvaliga “badantarbiya” predmeti ham kiritilgan. Bu dars ko‘p hollarda “Is’hoqiya bog‘i”da maxsus harakatli o‘yinlar tarzida o‘tkazilgan. Ibratning bu mактabi haqda uning shogirdi, mazkur mакtabda o‘qituvchilik qilgan Mirzaboy G‘iyosov shunday degan edi: “*Biz, o‘qituvchilar, mакtabga oldindan tuzib qo‘yilgan haftalik dars jadvali bo‘yicha darslarga tayyorlanib kelar edik. Har bir 40 minutlik darsdan keyin qo‘ng‘iroq chalinar va tanaffus bo‘lar, bolalar ko‘rkam “Is’hoqiya bog‘i”da 10 minut dam olar, uylaridan olib kelgan yeguliklarini tanovul qilar edilar. O‘quvchilar*

*hamma vaqt o‘qituvchilar e’tiborida bo‘lar edilari. Bu tartibga hamma bo‘ysunishga majbur edi. Is’hoqxon Ibrat hamma o‘qituvchilarni ham nazorat qilar edi”<sup>27</sup>.*

1912-yildan e’tiboran xuddi shu maktabda alohida qizlar guruhini tashkil qilgan va bu guruhga Husayn Makayevning rafiqasi Fotiha Makayevani o‘qituvchi etib tayinlagan. Is’hoqxon Ibrat zamonasining ulug‘ pedagogi sifatida bolalarni mактабдан bezdiruvchi, ularda muallimga nisbatan hurmat emas, nafrat uyg‘otuvchi tan jazosiga birinchilardan bo‘lib qarshi chiqdi, u oilada ham bolani kaltaklab tarbiyalash o‘ta noto‘g‘ri usul ekanligini alohida ta’kidlaydi. Shuni ham unutmaslik kerakki, maktab ochib qo‘ygan bilan ish bitmaydi. Maktab, o‘quvchilar va, hatto, o‘qituvchilar uchun sarf bo‘ladigan hamma moliyaviy masalalar Is’hoqxon Ibrat zimmasida bo‘lgan.

<sup>27</sup> Ushbu xotiralar Mirzaboy G‘iyosovdan 1963-yil 20-sentabrda yozib olingan. — U.D.

Hayotda yuz berayotgan har qanday ijobiy o'zgarishlar Is'hoqxon Ibrat publitsistikasiiga asosiy mavzu bo'lib kirdi. Ta'lif-tarbiya, maorif, fan va madaniyat, texnika sohasidagi yangiliklar uning maqolalarida aks sado berdi. 1912-yil 7-iyulda Qo'qon va Namangan shaharlarida Namangan-Qo'qon temir yo'llining ochilishi munosabati bilan katta tantanalar bo'ladi. Is'hoqxon bu tantanalarda qatnashdi va matbuotda bu voqealarni mohir jurnalist-publitsist sifatida yoritib bordi<sup>28</sup>:

*"Tortib qo'yilgan lentani kesib, aning ustig'a "Namangonga salom!" degan yozuvni vogzalga ro'baro' qilib, ul poyezdg'a Namangonga shukrona bayramga boradurg'on kishilar tushub, alohida chiroylik qilib, ustiga "Yaxshi soatda!" deb yozilgan darvozadan poyezd o'tub, Namangonga qarab jo'nab, o'sha as-*

---

<sup>28</sup> Turkiston viloyatining gazeti. 1911. 14-, 69-, 77-son; 1912. 1-, 54-, 56-sonlar.

*noda fotograflar va ham alohida chiqarilgan sinimotograf o'shal yerda hozir bo'lub, tasvirlarni olib turubdurlar... 7-iyulda Naman-gonda poyezdni(ng) doxili munosabati ilan o'n kun sayil bo'lub, fuqaro mehnatidin rohatga chiqqaniga xursandlik to'yi bo'ladur*<sup>29</sup>.

Jurnalist Is'hoqxon Ibrat keyingi "Naman-gondin umumiy xabar xursandi" maqolasida temir yo'l va Sirdaryo ustiga ko'prik qurilishida qo'l kelgan zamona texnikasiga, ilm-ma'rifatiga, xalq qudratiga, mehnatiga tasannolar aytadi, ularni "xursandlik to'yi"da qatnashishga da'vat etadi:

*O'qingiz ilm hikmat sizga bu ish katta  
ibratdur,*

*Agar ilm o'r ganursiz, barcha ishda sizga  
nusratdur,*

---

<sup>29</sup> Namangandin umumiy xabar xursandi. // Turkiston viloyatining gazeti. 1912, 56-son.

*Agar ilm o'lmasa, nodon umri barcha  
kulfatdур,*  
*Bu ashyoи jadidi mubaddini asli  
hikmatdур,*  
*Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon  
keldi<sup>30</sup>.*

Afsuski, bunday ishlarda Chor hukumati, general-gubernatorlik hech qachon mustamlaka o'lka xalqi manfaatlarini nazarda tutgan emas edi, aksincha, uning ma'naviy va moddiy boyliklariga egalik qilish, tezroq va ko'proq tashib ketishni maqsad qilib qo'ygan va bunga erishgan edi. Albatta, bularni mustamlakachi hukumat muassis bo'lmish mazkur gazeta sahifalarida aytish amri mahol edi.

Is'hoqxon Ibratning bu turkum maqolalari jurnalistikaning eng dolzarb janri — reportaj janrining ancha mukammal va chiroylı namu-

---

<sup>30</sup> Tarixi vagon. // Turkiston viloyatining gazeti. 1911, 14-son.

nasi desa arziydi. Hayotda yuz berayotgan har qanday ijobiy o‘zgarishlar Is’hoqxon to‘ra Ibrat publitsistikasiga asosiy mavzu bo‘lib kirdi. Ta’lim-tarbiya, maorif, fan va madaniyat, texnika sohasidagi yangiliklar uning publitsistik maqolalarida o‘z ifodasini topdi. Jadid matbuotining vujudga kelishi bilan uning sahifalarida Is’hoqxon Ibratning maqola va she’rlari ham tez-tez ko‘rina boshladi, gazeta va jurnal mutasaddilariga chin ko‘ngildan muvaffaqiyatlar tiladi.

**Jamoat arbobi sifatida.** Is’hoqxon Ibrat yigirma yildan ortiq vaqt davomida **To‘raqo‘rg‘on va Namanganda xalq qozi-si lavozimida faoliyat ko‘rsatdi.** Ma’lumki, musulmon dinida ma’nabat va jisman tozalikka, poklikka alohida e’tibor beriladi. Bu muhim masalaga Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq”, Abdurauf Fitrat “Rahbari nafot” asarlarida alohida boblar ajratganliklari

bejiz emas. Is'hoqxon to'ra **1905-yilda** xal-qining salomatligi, gigiyenik jihatdan ozoda bo'lishini o'ylab, o'z qishlog'i **To'raqo'rg'on-da ajoyib hammom qurdirdi**. Bu hammomga bag'ishlab "Turkiston viloyatining gazeti"-da xabar bosilib chiqdi: "*Namangon uyezdiga tobe' To'raqo'rg'on qozisi janob Is'hoqxon do'stimiz taajjublik hammom bino qilib, o'shal hammom binosiga ta'rixni gazetaga solmoq uchun Ilyin bosmaxonasiga pochta ilan yuborgan ekanlar*"<sup>31</sup>.

Mazkur hammom Yevropa usulida qurilgani sababli mutaassiblar qaydiga tushdi, uni "harom" deb e'lon qildilar, natijada, sodda xalq bu hammomga bormay qo'ydi. Qancha harakat, orzu-umid, iqtisodiy xarajatlar bilan qurilgan hammom binosi bir necha yil bekor yotdi.

---

<sup>31</sup> Doxiliy xabarlar. Tarixi hammom. // Turkiston viloyatining gazeti. 1905, 23-son.

Is'hoqxon Ibratning turkiy dunyoda ham obro‘-e’tibori oshib bordi. U Bog‘chasaroyda Ismoilbek Gasprinskiy va uning “Tarjumon” gazetasi bilan, Orenburgda Rizouddin Faxriddin va uning “Sho‘ro” jurnali bilan, Fotih Karimiy va uning “Vaqt” gazetasi bilan aloqa o‘rnatdi. Is'hoqxon Ibrat va uning yuqorida aytib o‘tilgan maktabi haqda tatar dramaturgi, maorifchisi Abdurauf Oxundzoda Shahidiy (Shahidullin) “Tarjumon” gazetasida ancha e’tiborli xabarni e’lon qildi. Unda shunday fikrlar bor edi:

*Oxundzoda Abdurauf Shahidullin  
(Shahidiy)*

*Idoraya maktub*

*Namangan uyezdi To‘raqo‘rg‘on qasaba qozisi Is'hoqxon to‘ra iyun oyida “Maktabi Is'hoqiya” ochdi. 50 nafar bola ta’limga olindi. Bu maktab usuli savtiyada bo‘lib, ham kunduzi va kechki, kunduzi bolalar, kechki*

*payt kattalar qiroatxonasi bor. Hozircha bir muallim bor. Bu maktab – viloyatdagi hamma maktablar uchun namuna. Qozi maktabga 1000 rubl sarfladi, muallimga 300 rubl maosh tayinladi. Ibrat haqida ma'lumot, til bilgilari, sayohati, asarlari “Oq gul dastasi”-da ma'lumot berilur<sup>32</sup>.*

Is'hoqxon Ibrat 1908-yilda Moskva, Peterburg shaharlarida bo'ladi, diqqatga sazovor joylari bilan tanishadi. Peterburgda Ermitajda saqlanayotgan, Kaufman tomonidan 1868-yilda Samarqandni bosib olganda olib ketilgan “Mus’habi Usmoniy”ni ko‘ziga surtdi, Rusiya oliy va o‘rta o‘quv yurtlari tizimi bilan yaqindan tanishdi. Qaytishda Orenburg va Ufa shaharlarida bo'ladi, turkiy xalqlarning ulug‘ mutafakkirlari Rizouddin Faxriddin, Fotih Karimiylar bilan “usuli jadid” xususida uzoq suhbatlashdi. Shu bilan birga, R.Fax-

<sup>32</sup> Idoraya maktub. // Tarjumon. 1907, 12-oktabr, 66-son.

riddinning “Sho‘ro” jurnali, F.Karimiyning “Vaqt” gazetasi bilan aloqa o‘rnatdi, ularning doimiy mushtariysiga aylandi. U yerda Gaufman degan matbaachidan pulini o‘n yil mobaynida bo‘lib to‘lash sharti bilan kreditga litografik mashina sotib oladi va uni butun anjomlari bilan juda katta mashaqqatlarga qaramay, Orenburgdan Qo‘qonga poyezdda, Qo‘qondan To‘raqo‘rg‘onga tuyalarda olib keldi. **1908-yilning noyabr-dekabr oylarda bir necha yildan beri bo‘sh yotgan hammom binosida bosmaxona tashkil qildi va “Matbaayi Is’hoqiya” nomi bilan ishga tushirdi.** Matbaa ishlaridan ancha xabardor bo‘lgan Husayn Makayev va Abdurauf Shahidiy Is’hoqxon bilan yonma-yon turib ishladi. Turkiston o‘lkasining chekka bir qishlog‘ida matbaaning vujudga kelishi o‘zbek xalqining ta’lim-tarbiya, ma’rifat sohasidagi ulkan yutug‘i edi. Bu haqda “Tarjumon”, “Vaqt” gaze-

talarida maqolalar e'lon qilingan. Matbaaning tashkil qilinishi, uni vujudga keltirishdagi maqsadi to'g'risida Is'hoqxon to'ra Ibrat "Tarixi chopxona" nomli she'r bitdi.

Turkistonning ilk matbaachilaridan biri Is'hoqxon to'ra bu amaliy faoliyati bilan o'lka ma'rifatparvarlari, maorifchilari faoliyatini yana bir pog'ona yuqoriga ko'tardi. Bu matbaada savod chiqarishga oid risolalar, darsliklar, plakatlar, majmualar muntazam nashr etib turildi. Ibrat "Maqsad bu ishdan erdi olamga ilm kasri" deb ta'kidlaganidek, bu matbaa o'z faoliyatini ilm-ma'rifat tarqatishdan boshladi. Unda birinchi marta 1908-yilda Is'hoqxon Ibrat xattot Mirrajab Bandiy bilan hamkorlikda savod chiqarishga bag'ishlangan "San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy" asarini nashr qildi. Ushbu asar savod chiqarishda, husnixat namunalarini o'rgatishda jadid va qadim maktablarida, madrasalarda "Mufradot" darsligi

sifatida qo'llangan. “Matbaayi Is’hoqiya”ning ilm-ma’rifat tarqatish maqsadida tashkil qilin-ganligini yana shundan ham bilishimiz mum-kinki, Is’hoqxon to’ra matbaa peshtoqiga nur taratayotgan quyosh tasvirini chekib, uning ichiga zarhal harflar bilan “ilm” so‘zini yozdir-gan. Bu bilan ma’rifatparvar ilmnii nur tara-tayotgan quyoshga o‘xshatadi. Bu ramziy tas-vir — emblema mazkur matbaada chop etilgan kitoblarning ko‘aida, xususan, ta’lim-tarbiya, ilm-ma’rifatga bag‘ishlangan kitoblarda mav-jud. Is’hoqxon matbaaning ochilgan yiliyoq uni kengaytirish, o‘lkada eng ko‘zga ko‘rin-gan bosmaxonalardan biriga aylantirish uchun harakat qildi, kerakli anjomlar tayyorladi, hu-kumatga ariza ham berdi:

*Ushbuni e’lon etamiz. Ushbu kundan ibti-doan matbaaimizda zakazlar qabul qilinadur. Chunonchi: risolalar, e’lonnomalari, har xil blankalar va tabriknomalari, ishcho’tlar, kar-*

*tochkalar, maktub varaqlari, har nima chop etmoq mumkin. Nimarsalar g'oyat yaxshi va nafis o'ziga bop qog'ozda chop qilib, ziynatlab, shoyon tamoshlo qilib, mushtariylarimizni(ng) husni rizoliqlarig'a mazhar bo'lmoq sa'y va ijтиҳодимизdur... Matbaamizni viloyatda tanho qilmoq avvaldan matlabimizdur. Anqarib urufot bosmaxonasi ham ochilur, asboblar ham tayyor. Hukumatdan ijozat olingan<sup>33</sup>.*

Bu so'zlardan ma'lum bo'ladiki, matbaa o'z xarajatlarini qoplash, kattagina kredit qarzidan qutulish maqsadida matbaada ilm-ma'rifat va maorifga aloqasi bo'lмаган turli-tuman qog'oz-blankalar, e'lonlar nashr etish va sotishga majbur bo'lган. Is'hoqxon Ibratning bu harakatlari zoye ketmadi: xalq o'rtasida kitob va turli xil risolalarga talabning ortishi natijasida ushbu matbaa 1910-yilda Namangan shah-

---

<sup>33</sup> Is'hoqxon Ibrat. Ilmi Ibrat. 16-bet.

riga ko'chirildi va tipolitografiyaga aylantirildi. Matbaaga 1908–1909-yillarda Abdurauf Shahidiy, 1910–1913-yillarda Husayn Makayev, 1913–1917-yillarda esa M.N.Abdusattorov mudirlik qildilar. Bu davrlarda matbaa Turkiston miqyosida katta ahamiyat kasb etdi. Namangan matbaasi mahsulotlarining kun sayin ortib borishi shahar va qishloqlarda kitob do'konlari va bozorlarining birmuncha ko'payishiga sabab bo'ldi. 1910-yildan boshlab Namangan shahrida 13 ta, Chustda 2 ta, Popda 2 ta, Yangiqo'rg'onda bitta, To'raqo'rg'onda bitta kitob do'koni ochildi, ularda, asosan, "Matbaayi Is'hoqiya"da chop etilgan kitoblar juda arzon narxlarda sotilar edi<sup>34</sup>. Bu matbaada, asosan, ilm-ma'rifatga oid risolalar, maktab uchun darsliklar nashr qilingan, bu ishda

<sup>34</sup> Чабров Н.Г. Из истории полиграфии и издательства на местных языках в дореволюционном Туркестане (1867–1917). Труды САГУ. Выпуск 57. Исторические науки, книга 7. – Ташкент, 1954. – стр. 83.

Is'hoqxon to'raning tashabbusi katta bo'lgan. Kitob chop etilgach, har qanday sharoitda ham u kitobxon, o'quvchi, xalq qo'liga yetib borishi kerak. Biz mazkur matbaada bosilgan kitoblarni ko'zdan kechirar ekanmiz, kitob oxirida shunday e'lollarga duch kelamiz: "*Qobiliyat va salohiyatlari qaviy, zakovat va fatonatlari joyida bo'lgan g'ayratlik talabalar va yosh muallimlarimiz biron qit'ayi hol xat namunasiga noil bo'lsunlar. Boqiy duo umid qilib, yangi va eski usul mакtab va madrasalaramiz va ahli kitobot va xattotlarimizga ta'lim va ta'limi kitobot xususidagi birinchi had-yamizni ojizona taqdim ayladik. Agar jolibi diqqat o'lursa, oz va ko'b xohlaguvchilar To'raqo'rg'onda "Matbaayi Is'hoqiya" ga deb yozsalar, har nusxasini 25 tiyindan hisoblab, tavaqqufsiz yuborilur... Mudiri "Matbaayi*

*Is'hoqiya" Oxunzoda Abdurauf Shahidiy*<sup>35</sup>.

Oktabr to'ntarishi tufayli bosmaxona mu-sodara qilindi. Orenburgdan olib kelingan litografik mashinada sho'rolar hokimiyati-ning dastlabki yillarida "Narodnaya gazeta", "Erkinlik", "Ishchilar qalqoni", "Sovdeb", "Rosta" kabi gazetalar rus va o'zbek tillarida shu matbaada nashr qilindi. **Sho'rolar davrining dastlabki yillaridayoq "Matbaayi Is'hoqiya"** nomi olib tashlandi va "**Udarnik**" nomida faoliyat ko'rsatdi. Hozirgi Namangan viloyatidagi Is'hoqxon Ibrat nomidagi matbaa-bosmaxona "**Matbaayi Is'hoqiya**" zaminida tashkil topgan. Is'hoqxonning husnixatga, xat-savod chiqarishga bag'ishlangan "San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy" (1908) o'quv risola-si, "Ilmi Ibrat" (1909) nomli she'rlar to'pla-

---

<sup>35</sup> Is'hoqxon Ibrat. San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy. — To'raqo'rg'on: Matbaayi Is'hoqiya, 1908. 12-bet.

mi, yozuvlar tarixiga bag‘ishlangan “Jome’ ul-xutut” (1912) asari o‘z matbaasida nashr etildi. Shu bilan birga, Abdurauf Samadov (Shahidiy)ning “Mahramlar” dramasi ham 1911-yilda “Matbaayi Is’hoqiya”da nashr etilgan. Namanganda faoliyat ko‘rsatgan jadid pedagoglari Dadamirza qori ibn Abdurrazzoq qorining “Miftoh ul-avval” (“Birinchi kalit”, 1916), Husayn Makayevning “Ilmi hol” (1910) o‘quv qo‘llanmasi ham mazkur matbaada bosmadan chiqqan. Is’hoqxon Ibrat Orenburgdan olib kelgan litografik mashina 1952-yilda To‘raqo‘rg‘on bosmaxonasi-ga yuborildi va “Uchqun” tuman gazetasini muntazam chiqarib turishda 1960-yilgacha foydalanildi.

Peterburg, Moskva, Orenburg va Ufa shaharlari sayohatidan litografik mashina bilan birga kinoapparat (sinematograf), fotoapparat, sovutgich (xolodilnik) kabi madaniyat va

ilm-ma'rifat ashyolari ham olib keldi: qishloq aholisini o'z bog'iga, ba'zan hovlisiga bir necha bor yig'ib, bu shaharlardagi madaniyat, mao-rif va xalqlarning turmush tarzi haqida ma'rutzalar, suhbatlar uyushtirdi, kinofilm namoyish etdi, hamqishloqlarining rasmini oldi, ko'plarga rasm olishni o'rgatdi, ba'zi suratlar shu kunlарgacha saqlanib qolgan.

Is'hoqxon Ibrat davlat, jamoatchilik ishlari bilan, hamkasb do'stlari — pedagog-olim-lar taklifi bilan har yili Toshkentga kelar edi. Ayniqsa, Xudoyorxonning farzandlari Sayyid Umarbek, Ibn Yaminbek (Binyaminbek), Sayyid Muhammad Fansurullohbek bilan ya-qin aloqada bo'lgan. U 1914-yilda Toshkentning Xadra qismidagi 1-rus-tuzem maktabi direktori S.Sichyov taklifiga binoan imtihon marosimida qatnashadi. Ibrat o'zbek bolalarining rus tilini ancha mukammal o'rganganliklarini ko'rib xursand bo'ladi va ularning kelajagiga zo'r umid bilan qaraydi:

Banogoh Toshkandni(*ng*) Xadra mazzeida bo'ladurgan dvuxklassnoy shko'lda imtihon vaqtি ekan. Rufaqa va kattalarimiz takliflari mujibincha borub, oni ko'rdimki, imtihonda bizni(*ng*) musulmoniya bolalari ham yaxshi durust rusiya zabonini raso yaxshi so'zlamoqg'a qodir bo'lub, ulug'lar huzurida hikoyalarni ikki bola bir-biroviga muqobil savol-javob qilishib, yaxshi imtihon berganlari yana meni shodlanturdi. Na uchunki bizni(*ng*) islom bolalari humumatimiz lisonlariga olim bo'lmaqg'a ham harakatlari borlig'i ma'lum o'ldi... Yana bir necha yillarda yozilmish ilm va kasbi kamolotlardin ham hissalarini olmoqqa iste'dodlari bo'lg'udek ekan<sup>36</sup>.

Is'hoqxon Ibrat rus-tuzem maktablari xususida turkiy xalqlar matbuotida, Rusiya Davlat

---

<sup>36</sup> Toshkand safarindagi ma'lumotlarim. // Turkiston viloyatining gazeti. 1914, 48-sont.

dumasida kechayotgan keskin kurashlar, pedagogikaning tub qonuniyatlariga zid bo‘lgan N.Ilminskiyning turkiy xalqlarni ruslashtirishga qaratilgan maktab tizimiga qarshi Ismoilbek Gasprinskiy (1851–1914), davlat va jamoat arbobi, to‘rtala Rusiya Davlat dumasi a’zosi Sadri Maqsudiy (1880–1957) chiqishlaridan, ayniqsa, rus siyosatdonlari tomonidan turkiy xalqlar yozuv tizimini kirillashtirishga qarshi “Tarjumon” va “Vaqt” gazetalarida ketma-ket chiqib turgan maqolalardan xabardor edi. Shuning uchun ham rus-tuzem maktablarining maqsad va mohiyatini juda yaxshi tu-shungan Is’hoqxon to‘ra Ibrat ulardan tubdan farq qiluvchi, milliy ma’naviyati yetuk o‘zbek yoshlarni tarbiyalab yetishtirish maqsadida milliy uyg‘onish davri o‘zbek pedagog-mutafakkirlari guruhi orasida birinchi bo‘lib **1914-yilda To‘raqo‘rg‘onda rus maktabi ochdi** va uni “Uchitel” nomi bilan atadi.

Bu mактабда To'raqo'rg'on va qo'shni qishloqlardan 30 nafar o'quvchi 1916-yilgacha ta'lιm oldi, mакtab dasturiga milliy ma'naviyat bilan bog'liq o'quv predmetlarini ham kiritdi. Bu predmetlarning yuqori saviyada o'qitilishi ni Is'hoqxon to'raning o'zi nazorat qildi. Bu, albatta, mustamlakachi ma'murlar siyosatiga ma'qul kelmas edi. U mакtabga rus o'qituvchilarini ham jalb qildi, o'zi ham o'qituvchilik qildi. Mакtabni **1916-yilda general-gubernatorlik ma'muriyati ruxsatisiz ochilganini ro'kach qilib yopib qo'ydilar.**

Is'hoqxon Ibratning 1898-yildan e'tiboran To'raqo'rg'on va Namangan shaharlarida xalq qozisi lavozimida faoliyat ko'rsatishi hamda uning o'lka qozilar syezdi rahbari sifatida gi xizmati ma'rifatparvarlik va maorifparvarlik faoliyatini muntazam va tizimli olib borishida qo'l kelgan, mutaassiblar hamma vaqt ham uning bunday faoliyatiga ochiq qarshilik

qilishga jur'at qila olmas edilar, shunga qaramasdan ular mutafakkirni “Is’hoq kofir” deb badnom qildilar. Ibratning qozilik faoliyati, qozi sifatida amalga oshirgan ishlari haqida anchagina ma'lumotlar mavjud. U boshqa qozilardan farqli ravishda xalq manfaatlari ni ko‘zlab, madaniy-ma'rifiy ishlar olib bordi, haqiqatni himoya qildi. Ba’zi bir qozilar kabi poraxo'rlik, rishvat bilan shug‘ullanmadi, aksincha, ilm-ma'rifat ahllariga ham ma’naviy, ham iqtisodiy yordam berib turdi. Bu haqda Is’hoqxon to‘raning qozilik xizmatida ish yurituvchi bo‘lib uzoq muddat ishlagan shogirdi Mulla Iskandar domla quyidagilarni hikoya qilgan edi: *“Is’hoqxon hoji eng fuqaroparvar, eng odil qozi edi. U boy ni ham, kambag’al-ni ham bir xilda tinglar va hukm chiqarar edi. Men qariyb 20 yil to‘ramning xizmatida bo‘lib, biror marta pora olganini, boy larga yonbosganini bilmayman, beva-becho-*



ralarning mushkulini yengillashtirish uchun yo'l-yo'riq ko'rsatar, imkon qadar yordam berar edi. To'g'ri, poraxo'r qozilarga o'rganib qolgan xalq, ko'proq yuqori tabaqa va killari, boylar pul, turli-tuman narsalar olib kelar edi, lekin Is'hoqxon to'ra bu narsalar ni egasi bilan qaytarib yuborar edi. To'ram faqat haqqoniyat uchun, xalq manfaatlarini himoya qilish uchungina qozilik mansabida ishlagan. Uning uyida va qozixonasida rus qonunchiligiga oid kitoblar ko'p bo'lgan va ulardan ish jarayonida foydalangan. Hatto rus ma'murlari ham ko'p hollarda o'zbeklarga xos yoki diniy-islomiy masalalarda Is'hoqxon Ibrat bilan maslahatlashishga majbur bo'lar edilar. To'ram uzoq yillar Turkiston qozilari siyezdining rahbari edi”<sup>37</sup>.

Turkiston o'lkasi Rusiya mustamlakasiga aylangach, qozilarning faoliyat doirasi ancha

---

<sup>37</sup> Mulla Iskandar domlaning bu xotiralari 1963-yilda yozib olingan. — U.D.

qisqartirildi, ularni, umuman, siyosiy ishlar-ga yaqinlashtirmay qo'yishdi, ya'ni asosiy huquqiy va siyosiy ishlarni general-gubernatorlik o'z tasarrufiga oldi, xalq qozilarini juz'iy ishlar bilan cheklab qo'ydi. Xalq qozisi Is'hoqxon to'ra bu o'ta mas'uliyatli lavozimni soxtalashtirgan qozilarni ta'qib ostiga ol-gan, qozilik saylovini shaxsiy boyish, poraxo'rlik manbaiga aylantirgan mustamlakachi ma'murlarni, shu bilan birga, noplak qozilar-ni qattiq qoraladi, ularning kirdikorlarini fosh etuvchi turkum maqola va she'rlari bilan mat-buotda faol chiqishlar qildi. Uning 1910-yilda Turkiston o'lkasi bo'yicha qozilik lavozimiga saylovlar munosabati bilan yozgan quyidagi so'zlariga e'tibor bering:

*Polojeniyada 223-inchi bobida (gubernatorlik ishlab chiqqan qozilik haqidagi qonun ko'zda tutilmaqda. — U.D.) zikr qilingan-*

*durki, e'tibori bor, yetti kundan ziyoda hibs bo'lмаган, o'ttiz so'mdan ziyoda ishtaraf to'lamagan, yoshi yigirma beshdan past emas odam (qozi) bo'lar ekan. Olim yoki omi, ahmoq yoki dono kishi, yo shariat biladurgan va yoki nizom biladurgan demagan... Ko'rasisz, kimlarni(ng) qo'llariga katta shariat hukmini beradurlar. Fikr-andisha qiladurgan kishi yo'q. Andisha qiladurgan odamni odam ham hisob qilmaydurlar. Polojeniya bobig'a muvofiq ellikboshi degan kimgaki shar ko'p tushsa, oni yozar ekan. Polojeniyada shariat biladurgan mulladan degan emas ekan. Ular-ga kim va nima bo'lishi ham darkor emas ekan.*

*Befikr o'tsang, ey do'st, muhtoji non  
o'lursan<sup>38</sup>.*

---

<sup>38</sup> По поводу выборов. // Turkiston viloyatining gazeti. 1910, 21-mart, 22-son.

Gubernatorlik adresiga, uning qonun-qoidalariga nisbatan aytilgan bu achchiq kinoga yo‘g‘rilgan so‘zlar hukumat muassisi bo‘lmish “Turkiston viloyatining gazeti” tahriri yati xodimlariga qattiqroq tekkan bo‘lishi tabiiy. Shuning uchun gazeta idorasi maqola muallifiga e’tiroz bildiradi:

*Polojeniyada xalq orasida obro‘ va e’tibori bor odam bo‘lsun degan, albatta. Mingboshilikka mingboshi bo‘lmoqlikka munosib obro‘sni bo‘lib va qozilikka qozi bo‘lmoqqa layoqat va munosiblik obro‘ bo‘lmoq lozimdur. Polojeniyani mulohaza qilmoq kerak.*

*Idora*<sup>39</sup>.

Is’hoqxon Ibrat ancha ilmli, din va davlat qonunlarini yaxshi biluvchi xalq qozilaridan bo‘lgani uchun Oktabr o‘zgarishidan keyin ham bir necha yil mazkur lavozimda faoliyatini davom ettirdi. Afsuski, sho‘ro hukumati bu

<sup>39</sup> Gazetaning o’sha sonida.

lavozimda uzoqroq muddat ishlashga imkon bermadi. Umuman, chor Rusiyasi ta'qibi ostida bo'lgan hamma milliy ziyolilar — jadidlar sho'ro davrida battarroq ta'qib va tazyiqqa, jisman va ma'nан qatag'onga mahkum etildilar.

Jadid mutafakkirlari diniy-islomiy tarbiyaga alohida e'tibor berganlar. Masalan, jadidchilik harakatining karvonboshisi Mahmudxo'ja Behbudiy usuli jadid maktablari o'quvchilari uchun yaratgan "Muntaxabi jug'rofiyayi umumiyl va namunayi jug'rofiya" darsligida alohida ta'kidlaganidek:

*Dinsiz dunyoda yashamoq insoniyat va madaniyatdan emas, hayvoniyligidur. Dinsiz mutamaddin bo'lmoq maholdur. Jamiyati bashariyani barqaror tutmoqig'a din, shar', nizom va bularni(ng) boshqarg'uvchilari birinchi sababdur<sup>40</sup>.*

---

<sup>40</sup> Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. — T.: Ma'naviyat, 2006. 22-bet.

Is'hoqxon Ibrat ham o'z faoliyati davomida diniy-islomiy tarbiyaga hal qiluvchi ahamiyat bilan qaradi. U "Millatni kim isloh qilur?" nomli maqolasida mutaassiblikni keskin qoraydi. Is'hoqxon to'ra fikricha, maktab-madrasalarni isloh qilish bilan bir qatorda, millatning ongini, tafakkurini isloh qilish kerak. Maqolada muallif din va shariat peshvolari masjidlarda amru ma'ruf o'tkazib, millatni shariatga xilof bid'atlardan voqif qilsalar, "vazifalari ta'lim-u hidoyati xalqulloh" bo'lgan ulamolar Alloh ol-didagi vazifalarini ado etgan bo'lur edilar degan fikrni bayon qiladi. Bu esa maktab va madrasalar islohotiga, usuli jadid maktablari taraqqiyotiga keng yo'l ochar, o'z navbatida, "islom dini barcha fanlarning bulog'idir" aqidasiga mos kelar edi:

*Biz, Turkiston musulmonlari orasida xilofi shariat odatlarni(ng) ko'pligi har kim-ga ma'lumdur. Muning dafi islohiga ulamo*

*hazrati kamari himmat bog'lab, muqaddas mehrob-u minbardan va'z so'y lab, aholig'a ahkomi shariatni bildurib, baytulloh huk-mindagi masjid va jome'larda erta-yu kech amri ba ma'ruf va nahyi az munkar etub, xaloyiq anglaydurgan bir til ila pand-u nasi-hat etsalar ham muni hech qo'ymasdan har kuni ba'd az namozi fajr va ba'd az xufton doim muxtalif mavzu'larda bahs etsalar, al-batta, ta'sirsiz qolmas. Xususan, muqaddas masjidda so'y langan va'z har bir mo'min qalbina du bolo ta'sir etar<sup>41</sup>.*

Millat ma'naviyatida, maorifi taraqqi-yotida matbuotning ulkan ahamiyatini yax-shi tushungan jadid mutafakkirlar Behbudiy, Munavvarqori, Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asa-dullaxo'jayev, Obidjon Mahmudovlar nashr etgan gazeta va jurnallarni qo'llab-quvvat-lagan, ularda o'z maqola va she'rlari bilan

<sup>41</sup> Millatni kim isloh qilur? // Oyina. 1914, 12-son.

faol ishtirok etgan Is'hoqxon Ibrat o'zi ham **1913-yilda “Matbaayi Is'hoqiya” qoshida “At-Tujjorun Namangon” nomida gazeta chiqarishga harakat qiladi**, hukumatdan ruxsat olish uchun ariza ham beradi. Bu haqda Orenburgda chiqadigan, Markaziy Osiyoda, umuman, turk dunyosida mashhur bo'lgan, Fotih Karimiy muharrirlik qilgan “Vaqt” gazetasi katta mamnuniyat bilan quyidagilarni yozadi: “*Namangon mo'tabarindin Is'hoq qozi hazratlari “At-Tujjorun Namangon” isminda bir gazeta chiqararg'a ijozat so'rab ariza berdi. Bu zot 1908-nchi yilda Namangonda bir matbaa ochgan edi. Bu yil “Kutubxonayi Is'hoqiya” isminda kutubxona ochib, turk, tatar, o'zbek, rus tillarinda bo'lg'on adabiyot kitoblari oldirdi. Hozir gazeta chiqarmoq haddindadur. Chin ko'nguldan muvaffaqiyat tilaymiz*”<sup>42</sup>.

---

<sup>42</sup> Idoradin xabar. // Vaqt. 1913, 1324-son.

Har qancha harakat qilsa-da, Is'hoqxon gazeta chiqarishga muvaffaq bo'la olmadi. Hamma vaqt Rusiya va gubernatorlik maxfiy organlari nazoratida bo'lgan Is'hoqxon Ibratga ruxsat bermadilar. Lekin **o'z uyida ancha boy kutubxona tashkil qildi va uni “Kutubxonayi Is'hoqiya” deb atadi.** Ibrat arxividagi u darajada to'liq bo'lman parokanda kitoblar ro'yxati shuni tasdiqlaydiki kutubxonada ta'lim-tarbiya va o'qitishga oid o'zbek, rus, tatar, turk, arab, fors-tojik tillarida ko'plab kitoblar bo'lgan, ulardan nafaqat o'zi, qishloq aholisi unumli foydalangan. Is'hoqxon Ibrat o'z maktabi o'quvchilarini kutubxonada saqlanuvchi kitoblar, darsliklar bilan ta'minlagan. Kutubxonaning maktab o'quvchilariga bag'ishlangan bo'limida S.Saidazizov, Munavarqori, A.Avloniy, M.Behbudiy, I.Gasprinskiy, S.Gramenitskiy kabi pedagoglarning ellikdan ortiq darslik va o'quv qo'llanmalari

bir necha nusxada, ta'lim-tarbiyaga oid yuzlab noyob kitoblar bo'lgan. Ibrat kutubxona a'zolarining kitob olish va o'qib bo'lgach, uni topshirish daftarini ham joriy qilgan, a'zolarning, ayniqsa, yoshlarning kitob o'qishlarini mutafakkirning o'zi nazorat qilib borgan, maosh olib ishlovchi kutubxonachi tayinlagan. Afsuski, bir necha ming kitob, qo'lyozmalar, gazeta va jurnallar boyamlarini o'z ichiga olgan ushbu noyob kutubxona sho'ro hukumatining dastlabki 1917–1920-yillar inqilob deb atalmish ur-yiqitlarida talon-toroj qilindi, ayniqsa, 1937-yil mash'um qatag'onida butunlay yo'q qilindi. Faqat mazkur kutubxonada to'plangan kitoblar, qo'lyozmalar hamda gazeta va jurnal-lar boyamlari ro'yxatigina uzuq-yuluq holda saqlangan.

Is'hoqxon to'ra Ibrat nisbatan rivojlangan, Turkiston general-gubernatorligi poytaxti Toshkent shahrida har yili bir necha marta-

balab bo'lgan: general Jo'rabek Qalandar qori o'g'li, Saidkarimbek Saidazimboy o'g'li Saidrasul Saidazizov, mashhur hofiz To'ychi Toshmuhamedov, Xudoyorxonning o'g'ilari Sayyid Umarbek, Ibn Yaminbek, Fansurullohbek, tarixchi olim, rus tilini mukammal biluvchi Mulla Olim Oxund va boshqa ma'rifatparvar shaxslar, millat fidoyilari bilan yaqin muloqotda bo'ldi: "...*Andin so'ng bir kun oshnoyi qadimimiz, hurmatlu muharir Mulla Olim Oxund afandi iftorga taklif qilgan edilar. To soat o'nga qadar o'lturub, muzokara, muzohakalar so'zlashub, kitoblar ko'rub, nihoyatda xursand bo'lub qaytduk*"<sup>43</sup> – deb yozadi Is'hoqxon bir maqolasida.

Mulla Olim ham Is'hoqxonni yaqin do'sti sifatida hurmat qilgan, uning asarlari bilan tanish bo'lgan. U Farg'ona vodiysi shaharlari

---

<sup>43</sup> Письмо в редакцию. // Turkiston viloyatining gazeti, 1911, 70-son.

bo‘ylab safarida Is’hoqxon Ibrat bog‘ida, uyida mehmon bo‘lgan, uning xalq uchun qurdirgan istirohat bog‘i Mulla Olimni hayratga soladi.

Is’hoqxon Ibrat Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti va pedagogikasining atoqli namoyandalari Hamza Hakimzoda Niyoziy va Muhammadsharif So‘fizodani yaxshi bil-gan. 1910-yili So‘fizodaning Shahandda och-gan usuli jadid maktabiga yaqindan yordam bergen, mutaassiblar xurujidan himoya qilgan, Hamzaning 1914-1915-yillarda Marg‘ilonda ochgan usuli jadid maktabini qo‘llab-quvvat-lagan, yordam bergen.

Is’hoqxon Ibrat jahon ilmi, madaniyati va ma’naviyatining har qanday yangiliklaridan xalqini bahramand qilishga harakat qildi. U jamoat arbobi sifatida otasidan qolgan **besh tanob yerda xalq uchun istirohat bog‘i yaratdi, toshdan katta hovuz va o‘rtasiga favvora qurdirdi, 150 tup archa va man-zarali daraxtlardan xiyobon barpo etdi,**



Yevropa usulida katta imorat qurdirib, arkiga “Xush kelibsiz, Is’hoqiya bog‘iga!” deb yozib qo‘ydi, maxsus bog‘bon tayinladi. Is’hoqxon Ibrat chet el sayohati davomida Istanbulda onasi Huribibi bilan farahbaxsh “Millat bog‘i”da dam oladilar, uzoq suhbatlashadilar. Ana o‘scha paytlarda unda xalq uchun mana shunday istirohat bog‘i tashkil etish fikri paydo bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas. **Bu bog‘ni qishloq aholisi 1960-yillarda ham “Is’hoqiya bog‘i”, “Gulbog“ deb eslar edilar.** Mutafakkir bu bog‘ni xalq uchun yaratganligini yana shundan ham bilishimiz mumkinki, bog‘ning soya-salqin joylariga o‘ltirib dam olish va 5-6 kishi bo‘lib suhbatlashish uchun shiyponchalar, o‘rindiqlar, skameykalar yasattirdi, bog‘da dam oluvchilarga, ayniqsa, yoshlarga, bolalarغا qarata gullarni behuda uzmaslikka, tar-tib-intizomni saqlashga chaqiruvchi didaktik she’riy misralarni chiroylı taxtachalarga yozib.

gulzorning ma'lum joylariga qadab qo'ygan.  
Mana, o'sha she'rlardan ba'zi bir namunalar:

*Uzmagil behuda gul, bog'bordin  
andesha qil,*  
*Ori-ori, gul uzarsan, xoridin andesha qil.*  
*Kimki keldi bu chamanga, to gul  
uzmay qo'ymadi,*  
*Lek har vaqt gul uzarsan, xalq  
xushini pesha qil.*

Yoki:

*Beijozat gulni uzma, boadab,  
So'ra bog'bordin, senga qo'ydim qadab.*

Yoki:

*Kirsa har odam bu yerga gulni  
hargiz uzmasun,*  
*Ko'r ho'kizdek surkanib, panjaralarni  
buzmasun.*  
*Yanchg'ilab gulni hamoqat do'konini  
tuzmasun,*

*Yosh buqadek yugurib, ko'rgan kishini  
suzmasun.*  
*Kirsa har kim boadablik taslimini  
bermasun.*  
*Ibrat olmay ham xijolat birla  
bog'din bezmasun.*

Bunday she'riy parchalarni to'raqo'rg'onlik keksalar 1960-yillarda ham yoddan aytib yurishar edi. Kamina ham Is'hoqxon Ibrat haqidagi ma'lumotlar to'plab yurgan o'sha vaqtarda bu she'rlarni ular og'zidan yozib olgan edim.

O'kinch bilan aytish kerakki, oljanob niyat bilan barpo etilgan "Is'hoqiya bog'i" dan sho'rolar davrida nom-nishon ham qolmadi.

Is'hoqxon Ibratning ilm-fan, madaniyat va maorif yangiliklarini o'z xalqiga targ'ib qilish taraqqiyotga to'g'anoq bo'layotgan yaramas urf-odatlarga qarshi kurash olib borishi, albat-ta, mutaassiblarga yoqmas, ularning g'azabi-

ni oshirar edi. Is'hoqxon o'z xalqini farovon, Vatanini ozod va obod ko'rishdek olajanob maqsadidan bir qadam ham chekinmadi, har qanday og'ir sharoitda ham ma'rifatparvarlik faoliyatini davom ettirdi. Zamondoshi Ibrohim Davron ta'kidlaganidek, "Dunyoning sonsiz mehnat-u anduhlaridin va guruhi kajraftor ta'nalaridin bir zarra qadar bo'lsa-da, maluliyat hosil etmadi".

**20-30-yillar muhiti.** Is'hoqxon to'ra Ibrat Oktabr o'zgarishini dastlab samimiyl qabul qildi. Sho'ro hukumatining, ayniqsa, Leninning mustamlaka xalqlar ozodligi, mustaqilligi haqidagi balandparvoz so'zlariga, va'dalariga ishondi, xalqini farovon, Vatanini obod qilishda sho'ro hukumatiga katta umid bog'la-di. Bu borada u yangi maktablar ochish, ma'rifiy-madaniy muassasalar tashkil qilish, savodsizlikni tugatish kampaniyasida faoliyat ko'rsatdi. Ammo 1918-yilda Turkiston

Muxtoriyatining bolsheviklar tomonidan qonga botirilishi, Farg'ona vodiysidagi dahshatli qirg'inlar Is'hoqxon Ibratning sho'rolar faoliyatini chuqurroq mushohada qilishga majbur etdi. Oktabr to'ntarishidan oldingi g'ayrat shijoat unda ko'zga tashlanmaydi. Shunday og'ir vaziyatda ham hamma jadid mutafakkirlari kabi xalqni ilm-ma'rifatli qilish yo'lidagi faoliyatini davom ettiradi.

Mutafakkir Is'hoqxon Ibratning yozishiga qaraganda, u **o'tgan asrning 20-yillarida “Qo‘rboshilar zamoni” nomi bilan ilmiy-tarixiy asar yaratgan**. Har holda, ushbu asarida u tarixcha-olim, siyosat va jamoat arbobi sifatida Turkiston Muxtoriyatining o‘zini o‘nglamasdanoq bolsheviklar tomonidan yan-chib tashlanishi, bosmachilik harakatining kelib chiqishi, mohiyati, uning nima sababdan bunday nom olgani kabi masalalarga ma'lum ma'noda haqqoniy javob bergen bo'lishi

mumkin. Istiqlolchilik harakati avjiga chiqqan o'tgan asrning 20-yillari boshida qozi Is'hoqxon Ibratning xalq uchun yaratgan hashamatli "Is'hoqiya bog'i" va uylari goh sho'ro hukumatining — qizillarning, goh istiqlolchilarning qo'liga o'tib turgan, mashhur "Kutubxonayi Is'hoqiya" dagi ko'p kitoblar talon-toroj bo'lgan, 1922-yilda uning eng katta o'g'li Abbosxon bosmachilarning odami sifatida shubha qilinib, qizillar tomonidan kaltaklab o'ldirilgan. Bularning hammasi "Qo'rбoshilar zamoni" asarida haqqoniy o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak edi. Afsuski, bu asar bizgacha yetib kelmagan, 1937-yilda — qatag'onning avj pallasida shoir qamalganda, bu qo'lyozma asar ham Andijon zindonida yo'q qilingan.

Is'hoqxon Ibrat mana shunday tushkun holda bo'lsa-da, 1918-yilning sentabrida To'raqo'rg'onda yangi maktab ochdi va pesh-toqiga ushbu shiorni katta qilib yozib qo'ydi:

*Ziyo bilan yuraman desang dunyoda,  
Ilm ol, hunar o'rgan, qolma piyoda!*

XX asr boshlarida jadid mutafakkirlari-ning, shu jumladan, Is'hoqxon Ibratning buyuk orzusi millat farzandlari uchun zamonaviy dorilfunun — universitet ochish edi. Shuning uchun ham Is'hoqxon Ibrat 1918-yil 12-mayda Munavvarqori Abdurashidxonov bosh-chiligida tashkil etilgan Turkiston xalq dorilfununini katta mamnuniyat bilan kutib oldi va zamonaviy oliy o'quv yurtida o'qishni davom ettira olish iqtidoriga, bilimga ega bo'lgan talabalar tayyorlash Namangan viloyati filialiga rahbarlik qildi, uning katta mablag' talab qila digan iqtisodiy jihatlarini ham o'z zimmasiga oldi...

Is'hoqxon Ibrat XX asrning 20-30-yil larida oddiy xalq o'rtasida millat ma'naviyat uchun zarur mavzularda suhbatlar, ma'ruzala uyushtirib turardi. Johil mutaassiblar jaholatni

avjga chiqarib, yana qoloqlik, ilmsizlik urug‘ini sepayotgan bir paytda Is’hoqxon Ibrat ularga qarshi ma’rifat bilan kurashni davom etti. Bu mutafakkir uchun yangilik emas, aksincha, barcha jadid ma’rifatparvarlari uchun asosiy kurash usuli edi. Savodsizlikni tugatish, ayollarni ham jamoat ishlariga jalb qilish kampaniyasining faollaridan Hamroxon aya Soiboyeva Is’hoqxonning bunday faoliyati haqida quyidagilarni so‘zlab bergen edi: “*1932-yilda yer qattiq qimirlagan edi. Mahallamizdagi hamma voqeа-hodisalarga diniy tus beruvchi guruhlar bu voqeadan ham o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish uchun xalqni tahlikaga sola boshladilar: “Musulmon xotin-qizlarmiz yuzlarini ochib, o‘rischa maktabga borib, dinimizni oyoqosti qildilar, ular kofir bo‘ldilar. Shuning uchun Xudoning qahri keldi, natijada, shunday zilzila bo‘ldi. Musulmonlar, tavba qilinglar! Qizlaringizni bu yo‘ldan*

qaytaringlar, Xudoga yolboringlar!" — deb, ayollarning yuragiga qutqu sola boshladilar. Bundan cho'chigan ba'zi bir xotin-qizlari yangi mактабни тark etishga, yana paranji yopinishga majbur bo'ldilar. Xalq o'rtasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lган Is'hoqxon ota mendan qishloq xotin-qizlarini toplashni iltimos qildilar. Men hamma xotin-qizlarni uning hovlisiga toplashdim. 70 yoshlar chamasidagi ota toplashganlarga zilzilaning bo'lish sabablari haqida, bu ofatning sho'ro maktablarida ilm olish, paranji tashlash bilan hech qanday aloqasi yo'qligi, yangi maktablari haqiqiy bilimlar beradigan mактab ekanligi zilzila tabiat hodisasi ekanligini tushuntirib berdi. Is'hoqxon otaning qizlari Vasilaxon Afifaxonlar paranji yopinishmas va sho'ro maktabida o'qir edilar. Ota ayollar o'rtasida savodsizlikni tugatish, fan-texnika, madaniyat yutuqlari haqida tez-tez suhbatlar uyush-

*tirar, hovlisida kinofilmlar namoyish qilib turar, bunday suhbat va filmlardan hamma mammun bo'lib qaytar edi”.*

Boshqa jadid ziyolilari, pedagoglari kabi Is'hoqxon Ibrat ham bolsheviklar zug‘umiga, ta’qiblariga qaramasdan, millatni ma’rifatli qilish yo‘lidagi faoliyatini to‘xtatmadı. Is'hoqxon Ibratning so‘nggi yillardagi hayoti ancha tahlikali vaziyatda o‘tdi. Birinchidan, qarilik, ikkinchidan, 20-yillarning ikkinchi yarmidan e’tiboran hamma lavozimlardan, qozilik ishidan ham mahrum etilgan, iqtisodiy tanqislik, hatto qarilik nafaqasi ham tayinlanmagan edi. Ibrat tepasida ham qatag‘on bulutlari quyuqlashib bormoqda edi. 1930-yillarda Is'hoqxon Ibrat sho‘ro hukumatining mas’ul lavozimlarini egallab olgan bilimsiz, noplak odamlarni fosh etuvchi hajviy she’rlar bitdi. Ularning bilimsizliklari tufayli xarobaga aylanib borayotgan qishloqlar qiyofasini tasvirlab berdi.

Sho'ro hukumati istiqlolchilik harakatini tugatish uchun o'n minglab, yuz minglab aholini qirib tashladi, qishloqlarni vayron qildi. 1920-yillarning o'rtalaridan boshlab, vaqtincha tinch qo'yilgan eski ziyolilar — jadid mutafakkirlarini jisman va ma'nan yo'q qilishga kirishdi.

**She'riyati haqida.** Is'hoqxon to'ra Ibrat avvalambor, o'ziga xos iste'dodli shoirdir. U ijodi davomida turli mavzularda rang-barang go'zal she'rlar bitdi, katta hajmdagi she'riy asarlarini to'plab, devon holiga keltirgan. Bu haqda shoir o'zi yaratgan asarlarini sanab kelib, "... sakkizinchi — "Devoni Ibrat" g'azali-yoti bahr qilingan, o'ttiz yil ichinda jam bo'lgan ta'rixiy she'rlardurki, munda ko'b ta'rixlar, milliy qasidalar va axloqiy tanqid, boshimizdan o'tgan hodisalar, jami bir

*gazaliyot kitobidurki, bu holo bosma bo'lma-gan, intishor etilmagandur*<sup>44</sup> — deb yozadi.

Is'hoqxon Ibratning zamondoshi, Qo'qon adabiy muhitining taniqli namoyandasini shoir, tarjimon, xattot Sulaymonqul Muhsiniy (1860–1917) ham uning olijanob fazilatlari haqida gapirib, “sohibi devon” deb, ta'rif va tavsif etadi. Afsuski, mazkur qo'lyozma devon 1937-yilda Ibrat qamoqqa olinib, uyi tintuv qilinganda yo'qolgan yoki “Kutubxonayi Is'hoqiya”dagi hamma bosma va qo'lyozma kitoblar bilan Andijon zindoniga olib ketilgan bo'lishi haqiqatdan yiroq emas. Shunga qaramay, shoirning kattagina hajmdagi she'rlari Oktabr to'ntarishidan ilgarigi vaqtli matbuotda bosilib chiqqan, varaq-varaq qog'ozlarda, o'sha vaqtida tuzilgan zamondosh shoirlarning

<sup>44</sup> Is'hoqxon Ibrat. Tarixi madaniyat. 25-bet.

bayozlarida, hamqishloqlarining tillarida va shoirning ilmiy asarlarida, parokanda holda saqlanib qolgan.

Bulardan tashqari, Ibrat she'rlarining kichik bir qismini to'plab, o'z matbaasida "**Ilmi Ibrat**" nomi bilan 1909-yilda Oxunzoda Abdurauf Shahidiy muharrirligida nashrdan chiqargan. To'plam muharrirning so'ngso'zi bilan birgalikda 16 betdan iborat bo'lib, 1 arabcha, 3 ta forscha, 5 ta o'zbekcha she'rdan tashkil topgan. To'plamdagagi she'rlarning asosiy mazmunini shoir yashab ijod etgan tuzum-dagiadolatsizlikni tanqid ostiga olish va xalqni ilm-ma'rifatga chaqirish g'oyalari tashkil etadi.

Ibratning birmuncha she'rlari shoirning to'ng'ich o'g'li Abbosxon Is'hoqov tomonidan 1918-yilda tuzilgan bayozga kiritilgan. Abbosxon ham she'riyatga ancha ixlosmand bo'lган, o'зи ham she'r mashqi bilan shug'ulangan. Mazkur bayozga Is'hoqxon Ibratning

ota-onasi vafotiga bag‘ishlangan ta’rix va məsiyalari hamda ishqiy mavzudagi she’rlari ham kiritilgan.

Ibrat she’rlari saqlangan yana bir manba 1963-yilda shoirning kenja o‘g‘li Rotibxon Is’hoqov Sharqshunoslik institutining Qo‘l-yozmalar fondiga topshirib ketgan shoir hujjatlari saqlanuvchi papkadir. Unda ba’zi varaq qog‘ozlarda Ibrat she’rlari bor hamda shoirning katta o‘g‘li Abbosxonning yon daftarchasi ham bo‘lib, unda Muqimiyl, Furqat, Zavqiy, Nodim Namangoniy she’rlari bilan birga Ibratning ham bir necha she’rlari kiritilgan.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Is’hoqxon Ibrat Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Hamza, Ashurali Zohiriyl kabi jadidchilik harakatining yetakchi arboblari bilan yaqin hamkorlikda bo‘ldi, ularning gazeta va jurnallarida she’r va maqolalari bilan faol ishtirok etdi, ular ochgan usuli jadid maktab-

larini olqishladi, mutaassiblar hujumidan himoya qildi. Shu bilan birga, Muqimiy adabiy maktabining mashhur namoyandalari bilan yaqin aloqada bo'lgan, ularning adabiy anjumanlarida qatnashib turgan, ayniqsa, atoqli shoir Muqimiy va Nodim Namangoniy bilan yaqin aloqada bo'lgan. Bu haqda Is'hoqxon Ibratning qozixonasida xizmat qilgan shogirdi Mulla Iskandar domla Abduvahob o'g'li (1880–1972) quyidagilarni aytib o'tgan edi: "*1900-yil bo'lsa kerak. Sulaymonxo'ja Ulug'xo'ja o'g'li Nodimning dadalari vafot etdi. Bu vaqtda shoir Nodim haj safarida ekan. Men to'ram bilan Namanganga dafn marosimiga bordik. Bundan 2-3 kun o'tgani dan keyin ta'ziyaga shoir Muqimiy keldi. U vaqtda Qo'qon-Namangan yo'li to'ramning mashhur bog'lari yonidan o'tar edi. Muqimiy yo'l azobidan ancha charchagani va kech bo'lib qolgani uchun Is'hoqxon to'ram-*

*ning uyida bir kecha dam oldi. Ertasi kuni Muqimiya hamroh bo'lib, yana Namangan-ga keldik. Bu ma'rakadan keyin Is'hoqxon uyida Muqimiya va bir qancha shoirlar o'z she'rlarini o'qidilar. Shoир Muqimiya she'rida Qo'qon qozilari va mingboshi-yu ellikboshi-laridan qattiq noroziliginu, Is'hoqxon Ibrat-ning qozilik faoliyatidan mamnun bo'lganini bildirdi va mushoira oxirida Muqimiya Is'hoqxonni Qo'qonga taklif qildi. Bir-ikki kundan keyin to'ram Muqimiyni o'z kolyaskasida kuzatdi”<sup>45</sup>.*

Is'hoqxon Ibrat mazkur davr Qo'qon adabiy muhitining Nodim Namangoniy, Mulla Jalolxon Vasfiy, Muhammadsharif So'fizoda, Muhsiniy, Ubaydulla G'urbat kabi yirik namoyandalari bilan yaqin adabiy hamkorlikda bo'lgan, ularning adabiy anjumanlarida faol ishtirok etgan.

---

<sup>45</sup> Ushbu xotira 1965-yilda Iskandar domladan yozib olingan.

Ibrat, asosan, o'zbek tilida, qisman, arab va fors tillarida ijod qilgan. Shoirning biz to'plagan va aniqlagan she'rlari kattagina hajmga ega bo'lib, Ibrat ijodining yo'nalishi, shoir maslagi, dunyoqarashi va she'rlarining badiiy qiymatini to'la ifodalay oladi. Ibrat yoshligidan so'z san'atining buyuk siy whole — ustoz shoirlar Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Bobur, Mashrab ijodini chuqur o'rgangan, ularning bitmas-tuganmas ijod chashmasidan bahramand bo'lgan. U, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini ancha yoshlikdan mutolaa qila boshlagan, buyuk mutafakkirning she'riy asarlari bilangina emas, falsafiy, axloqiy-ta'limiylar asalari bilan ham qiziqqan, chuqur o'rgangan, uning mashhur she'rlariga naziralar bog'lagan. Ibrat Navoiyning:

*Ko'zing, ne balo, qaro bo'lubdur-*  
*Kim, jong'a qaro balo bo'lubdur, —*  
 matla'li g'azaliga shakl va mazmun jihatidan  
 mos nazira bog'lagan.

Ibrat Alisher Navoiyning “Bo‘lubdur” g‘azalidan qattiq ta’sirlangan, albatta. Shuning uchun bu g‘azalga javoban radif, qofiya, vazn va baytlarning sonini saqlagan holda nazira yaratgan. Ibratning nazirasida ham insoniy muhabbat, uning go‘zalligi-yu jafosi yuksak his bilan tarannum etiladi. Is’hoqxon mazkur g‘azalida mumtoz shoirlarimiz an'analariga izchil amal qilgan holda ma’shuqani bevafo, bemehr, iltifotsiz, yor holidan bexabar, jafo-kash sifatida tasvirlaydi va vafodor bo‘lishga da’vat etadi. Lekin Ibratning ushbu g‘azalida o‘ziga xos badiiy vositalar, ayniqsa, davr ruhi, oshiqning jamiyatdagi o‘rni, tuzumdan nolish, “yaldo tuniday qaro ro‘zg‘ori” dan norozilik kayfiyatları kelib qo‘shiladi:

*Ohim tutuni-la ro‘zg‘orim  
Yaldo tuniday qaro bo‘lubdur.*

Musulmon Sharqi mumtoz adabiyotida shoirlar asarlariga muxammas, nazira bog‘lash ijodiy an'anaga aylangan bo‘lib, mumtoz

shaklni saqlagan holda uni mavjud tuzum, davr ruhi, ilg'or fikrlar bilan rivojlantirib boradilar. Ibrat ishqiy lirkasining asosini visol, sevgi, hijron dardi, yorning vafodorligi, uning iltifotidan quvonish, bevafoligidan iztirobga tushish kabi insoniy tuyg'ular tashkil etadi.

Umumsharq adabiyotidagi kabi o'zbek mumtoz she'riyatida yor, bulbul, gul mavzusi alohida ahamiyatga ega. Bu mavzuda atoqli qalam sohiblari Lutfiy, Navoiy, Bobur, Marshrab, Muqimiy, Furqat kabilar badiiy yuksak asarlar yaratganlar. Bu mavzuga shoirlarning takror va takror murojaat qilishlari bilan ular hayotni, insonni, inson muhabbatini, Vatanning go'zal tabiatini, umuman, go'zal hayot haqidagi orzu-armonlarini o'ziga xos badiiy vositalar bilan kuyladilar. Bu mavzu har qaysi ijod-korda o'ziga xos badiiy uslub, timsol, tasviriy vositalar orqali ifodalanadi. Is'hoqxon Ibrat ham lirk shoir sifatida bu hayotbaxsh mavzuni chetlab o'ta olmadi. Bu sohada shoirning

**“Sahar vaqtি chaman ichra”** radifli g‘azali tahsinga sazovordir.

Bulbul sahar vaqtি qizil gul ishqida gulzorda afg‘on chekadi. U gul ishqida shunchalar mastki, hatto tikandan-tikanga qo‘naverib, butun bag‘ri qonga belanganidan ham bezabar. Bulbul oxiri qizil gul ishqida bag‘riga tikanlarning sanchilaverishidan qip-qizil gul kabi qonga belanadi va halok bo‘ladi:

*O‘shal bulbul qilur afg‘on, sahar vaqtি chaman ichra,*

*Qo‘nar gul deb tikan uzra, sahar vaqtি chaman ichra.*

*Qilur bag‘rini bulbul qon, tikan uzra beray deb jon,*

*Bo‘lur gul zavqidin qurban, sahar vaqtি chaman ichra.*

Shoir bu bilan cheklanmaydi. Quyidagi baytlarda oshiq-shoirning yuksak insoniy muhabbatga bo‘lgan samimiy munosabati yanada

yorqinroq ifodalananadi. U bulbul kabi yorga yetishishni hamma narsadan afzal ko'radi. Shuning uchun ham yorga yetishish yo'lida oshiq hatto o'limga ham tayyor. Yuqoridagi misralarda asosan tabiat lirkasi tarannum etilsa, keyingi ikki baytida shoir timsoli birinchi o'ringa chiqadi:

*Muyassar bo'lsa ul jonon, ato qilsa o'shal  
Subhon,*

*Yo'lida jon qilay qurban, sahar vaqtি  
chaman ichra.*

*Ibrato, bexabar bo'lma, yana g'aflat bilan  
o'lma,*

*Gunohi beedad qilma, sahar vaqtি  
chaman ichra.*

Ibrat yaratgan muhabbat mavzusida-gi g'azallarda insonga xos yuksak his-tuyg'u tarannum etiladi, ularda insonning ichki kechinmalari, orzu-umid, qayg'u-alamlari o'z ifodasini topadi. Ibrat tasvirlayotgan ma'shuqa

afsonaviy sevgili, hur-g‘ilmon emas, u haqiqiy inson. Unda insonning hamma go‘zalliklari, his-tuyg‘ulari mujassam, go‘zallik, latofat sami-miy muhabbat va vafo bilan uzbek bog‘langan. Shoirning quyidagi g‘azalini o‘qir ekanmiz, uning birorta aniq shaxsga bag‘ishlanganini yoki hayotdagi mavjud yorni ko‘zda tutganligini anglash mumkin:

*Ramuz, dilbari jonon, mani ado qilasiz,  
Bu telbalarni yana g‘amga mubtalo  
qilasiz.*

*Ko‘zim qarosi kuygayki, boshqaga  
qarasam,*

*Agar gapursam, tilimni tilim-tilim  
qilasiz...*

*G‘amingda qozi quling yig‘layur  
hama doim,*

*Qoshingni yoy etibon, kiprikni  
qaro qilasiz.*

Shoir ushbu g'azalida mahbubaning tashqi ko'rinishini tasvirlashga alohida e'tibor bera-di. Uning qiyofasidagi har bir tafsilot (detal) alohida, zo'r mamnunlik bilan tasvirlanadi. Uning atlas kamzuli, chuchuk tili, yoy kabi qoshlari, o'q kabi kipriklari shoirni hayratga soladi. Shoir Ibratning ushbu g'azali, ayniq-sa, soddaligi, musiqiyligi, xalq qo'shiqlariga hamohangligi bilan ajralib turadi. Undagi radif (qilasiz), qofiyadosh so'zlar (ado — mubtalo — jafo — imo — jazo — baho — qaro)ning g'azal vazniga mos tushishi chuqur mazmunni bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qiladi, bir marta o'qishdayoq kishining xotirasiga singib keta-di. Shuning uchun ham ushbu g'azal xonanda va sozandalarning e'tiborini o'ziga tortdi. Hofizlar bu g'azalni kuyga solib, ijro etdilar. Shoirning mazkur g'azali shu kunlarda ham zo'r zavq-shavq bilan xonandalar tomonidan ijro etib kelinadi.

Ibrat lirikasida til, badiiy tasvir vositalari e'tiborga sazovordir. Shoirning istioralari, sifatlash va o'xshatishlari sodda va samimiyyidir. Bu badiiy ifodalar lirik timsolning qiyofasini, shoirning ichki kechinmalarini namoyish etishga yordam beradi. Masalan, shoir "**Xush keldingiz**" radifli g'azalida ma'shuqanining ajoyib surati va siyratini shunday tasvirlaydi:

*Sarvbo'yliq, xushqadam, ra'nosifat,  
xush keldingiz,*

*Yurishing tovus kibi, barnosifat,  
xush keldingiz.*

*Lablarining shahd-u shakar, oq tishlaring  
durdonadur,*

*Ko'zlarining bodomitar, laylosifat,  
xush keldingiz.*

Bu baytlardagi sifatlashlar (sarvbo'yliq, xushqadam, shahd-u shakar, bodomitar); o'xshatishlar (ra'nosifat, laylosifat, barnosifat) turmushda mavjud bo'lgan timsolning malohati

va go'zalligini kitobxonga bo'rttirib ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi natijasida mahalliy xalq hayoti yanada mushkullashdi, monopolistlar, sudxo'rlar tomonidan ayovsiz zulmga, talon-tarojga, haqorat-u kamsitishlarga mahkum etildi. Ibrat ham mazkur ijtimoiy-siyosiy mavzularda mehnat ahli hayotini haqqoniy tasvirlovchi asarlar yaratdi: uning "**Qarz**", "**Qalaysizlar**", "**Bo'lubdur**", "**O'lursan**", "**Siym-u zardur**" kabi she'rlari shular jumlasidandir. Xalq hayoti bilan hamnafas bo'lgan shoir Ibrat kecha-yu kunduz mehnat qilib, qorni nonga to'ymasligini, egni kiyimga yolchimasligini, boshi bir umr qarz balosidan chiqmasligini o'z she'rlarida haqqoniy tasvirlaydi.

Is'hoqxon Ibratning 15 band 90 misradan iborat bo'lgan "**Qarz**" radifli musaddasi 1913-yilda "Turkiston viloyatining gazeti"da

e'lon qilindi. Shoirning ushbu she'rida mustamlaka Turkistonligi hisobsiz soliqlar natijasida kambag'al dehqonlarning boshiga tushgan musibatlar, buning ustiga, tabiiy ofatlar: suvsizlik, qurg'oqchilik tufayli xalq qarz balloonsiga mutbalo bo'lganligi o'z ifodasini topgan. Chor Rossiyasi mustamlaka o'lkani asosiy paxta bazasiga aylantirgan bo'lsa ham, mo'l hosil yetishtirish uchun hech qanday yordam bermas, hatto qishloqni suv bilan ma'mur qilish masalasini xayoliga ham keltirmas edi. Xalq boshidagi qayg'u-alam, musibatdan ham mustamlakachi kapitalistlar, sudxo'rlar unumli foydalanar, chorasiz qolgan mehnatkash xalqni qarz botqog'iga botirar, shu qarz evaziga ularni boqib turgan bir parcha yerlarini ham tortib olar edilar.

Shoir Is'hoqxon Ibrat chor va milliy burjuaziyaning, sudxo'rlarning dehqonlarni xonavayron qilishdagi bunday hiyla-nayranglarini ayovsiz foshqiladi:

*Ko'blar berib ariza kreditni ochtilar,  
Pulni olib xaloyiqqa paxtaga deb  
sochtilar,  
Ko'b kambag' aldin unmadi, oxirida  
shoshdilar,  
Ba'zilarni mast qilib, aqchasini toshdilar,  
Keldi bu xalq boshiga birdan baloyi qarz,  
Bo'ldi tamom xalqi jahon  
mubtaloyi qarz<sup>46</sup>.*

Rossiya mustamlakachiligi O'rta Osiyoga o'zining o'ta salbiy, axloqiy tuban illatlarini ham olib keldi. Bu illatlar, ayniqsa, yangi tug'ilib kelayotgan milliy burjuaziya hayotida yaqqol-roq ko'zga tashlana boshladi. Ular — sav-dogarlar, zavodchi-boylar, maskovchi-boylar, amaldorlar, yuzboshi-mingboshilar bu illatlarni ko'r-ko'rona qabul qila boshladilar: restoran-u mehmonxonalarda iflos ishlar bilan shug'ulla-

---

<sup>46</sup> Qarz. // Turkiston viloyatining gazeti. 1913, 93-son.

nish, “doim fiyon” bo‘lib yurish ko‘payib bordi. Bu haqda akademik V.V.Bartold quyidagilarni yozadi: “*Yerli aholining ruslar bilan yaqinlashishi, rus tilini o‘rganishi natijasida rus hayotining tashqi, salbiy tomonlarini ham o‘zlashtirdilar, fahsh hayot kechirishga, vino, pivo ichishga o‘rgandilar...*”

Shoir Ibrat o‘zining “**Bo‘lubdur**” radifli hajviyasida mana shunday hayotiy lavhalarni berar ekan, ularga o‘zining nafratini tasvirlash bilangina cheklanib qolmaydi, balki bunday yaramas hayotni vujudga keltirgan omil sifatida o‘lkamizning ruslar tomonidan bosib olinishi va ular o‘zlari bilan olib kelgan iflosliklar bilan bog‘laydi:

*Alhol muhtasib yo‘q, bir-ikki qilsa  
ul do‘q,  
Ichkilikka xalq rog‘ib, doim fiyon  
bo‘lubdur.*

*Mahbuba naxshixonlar, ko'zi qaro  
juvonlar,  
Gastinsalarda yurib, sarfi ziyon  
bo'lubdur.*

*Manzuma soli ta'rix bu dahr inqilobi,  
Ming ikki yuz-u to'qson ikki<sup>47</sup> bayon  
bo'lubdur.*

Bu davrga kelib, savdogarlar, olibstarlar o'rtaida qalloblik avjiga chiqdi. Buning ustiga, chorizm tomonidan o'tkazilgan pul islohoti mehnatkash xalqning, ayniqsa, mustamlaka o'lka xalqlari hayotini nihoyatda og'ir ahvolga solib qo'ydi. Xalq qo'lidagi qadrsizlangan pullarga hech narsa ololmas edi. Qarzdorlik, og'ir soliqlar, narx-navoning haddan tashqari oshib ketganligi oddiy tirikchilik o'tkazishni

<sup>47</sup> 1292-hijriy (1875-milodiy) yil Chor Rossiyasining Qo'qon xonligini bosib olgan. Shoir Ibrat musulmonlar o'rtaida bunday yaramas, fahsh ishlarning rivoj topishini o'lkaning ruslar tomonidan bosib olinishi bilan bog'laydi.

mushkul ahvolga olib keldi. Mana, shoir qas-soblar, nonvoylar, alloflarning qanchalik noin-sofligini, ularning xalqni talashdagi usullarini shunday tasvilaydi:

*Qassob-u qo'yfurushlar, jang-u jadal  
urushlar,*

*Bechoralar fuliga go'sh(t) ustixon  
bo'lubdur.*

*Nonvoyda yo'qdur insof, andin o'tadur  
allof,*

*Ko'r, chaksa un xamiri qirq ikki non  
bo'lubdur.*

Is'hoqxon Ibrat bunlay axloqsiz, tuban jamiyatda yashab, uning tartib-intizomini tu-zatishga chaqirishni befoyda deb biladi va undan uzoqroq bo'lishga da'vat etadi:

*Ibrat, bu yerda turma, bunlar bila  
o'lturma,*

*Bu xalqi fe'l-xuyi senga ayon bo'lubdur.*

Shoir yashagan davrda qozilik, advokatlik mansablariga ko‘p hollarda na shariat va na davlat qonunlaridan xabardor bo‘lgan omi shaxslar saylanib qolar, “kufiyadan bo‘lakni bilmas” soxta advokatlar, qozilar xalq boshiga cheksiz mashaqqatlar, kulfatlar keltirar edilar. Chor amaldorlarining poraxo‘rligi mana shunday savodsiz qozilarning vujudga kelishiga katta imkoniyat yaratgan edi. Is’hoqxon to‘ra mana shunday amaldorlardan nafratlanadi, ular bilan bir mansabda ishlashdan or-nomus qiladi. Shuning uchun ham u har qanday amaldan, mansabdan kasbni, hunarni yuqori qo‘yadi va birorta hunar egasi bo‘lishga chaqiradi:

*Ko‘b bo‘ldi advokatlar, yo omidin  
vakillar,*

*Kufiyadin bo‘lakni bilmas, fig‘on  
o‘lursan.*

*Kelgay zaifi xayli, senga jadali mayli,*

*O'qini shast<sup>48</sup> qilg'ay, sen bir kamon  
o'lursan.*

*Har kasb pesha qilg'il, bo'lmas amal  
senga qut,*

*Bekasb o'tsang, Ibrat, muhtoji non  
o'lursan<sup>49</sup>.*

Tarixdan ma'lumki, 1916-yil Birinchi jahon urushi avj pallasiga ko'tarilgan bir paytda mustamlaka Turkistonda ocharchilik, qahatchilik avjiga chiqdi. Buning ustiga, Rossiya imperialistlari o'lka xalqlardan mardikor olish haqidagi farmoni xalq boshiga katta kulfat toshlarini yog'dirdi. Ko'plab o'zbek shoirlari qatorida Is'hoqxon Ibrat ham bu mash'um voqeя haqida she'rlar bitdi. Shoirning "**Qlaysizlar?**" radifli she'rida shunday dardli misralar mavjud:

<sup>48</sup> Shast — sanchqi, nayza.

<sup>49</sup> Is'hoqxon Ibrat. Ilmi Ibrat. 9-10-betlar.

*Tiriklik zahmatidin, ushbu kunlardin  
qalaysizlar?*

*Bu qimmatlik yili bo'g'doy-u unlardin  
qalaysizlar?*

*Hamani qo'ymadi o'z holig'a, tashvishlar  
soldi,*

*Mushavvash<sup>50</sup> aylagan bu ahli dunlardin  
qalaysizlar?*

*Bosib xalqi jahonni ayladi toroj o'g'rilar,  
Salomat yotdingizmu, bo'yla tunlardin  
qalaysizlar?*

Shoir o'zining hajviy asarlarida ayrim zodagon va amaldorlarning ichki va tashqi dunyosini, surati va siyratini: manmanligini, noinsofligini yaqqolroq ko'rsatishda turli badiiy vositalar, xalq ibora va maqollaridan nihoyatda o'rinli foydalanganini ko'rishimiz mumkin:

---

<sup>50</sup> Mushavvash — g'am-tashvish, parishon.

*Ko'b bo'lsa har kimda siym ila zar,  
Yursa har qayonda qildi kar-kar.  
Ulamoni(ng) yo'qdur e'tibori,  
To'y-u azoda hamisha boy yuqori.  
Bo'ldi bari kibr ila havolig',  
Qurt tushub dimog'iga navolig'.*

Shoir Is'hoqxon Ibrat she'riyatida xalq manfaatlarini himoya qiluvchi, demokratik, ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarannum etuvchi asarlar asosiy o'rinni egallaydi. Ibrat xalq bilan birga bo'lishni, xalqqa xizmat qilishni, uning dardiga hamdard bo'lishni asosiy maqsad deb bildi va bu maqsad shoir she'riyatida o'z ifodasini topdi.

O'zbek mumtoz adabiyotida keng kuylanib kelgan an'analardan biri ma'rifatparvarlikdir. Chunki ilm-ma'rifat xalqning iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayotini yaxshilashda asosiy omil sanaladi. Shuning uchun ham atoqli so'z

san'atkorlari bu hayotbaxsh g'oyani hamisha kuylab kelganlar. XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asr boshlari o'zbek adabiyotida yangicha ma'rifatparvarlik davr taqozosi bilan kuchli harakatchilikka aylandi. Is'hoqxon to'ra Ibrat ma'rifatparvarligining tub mag'zi shundaki, uning xoh ilm-ma'rifatga chorlovchi she'rlarida, xoh publitsistik, xoh ilmiy asarlarida, xoh amaliy faoliyatida bo'lsin, inson taqdiri birinchi o'rinda turdi. U o'z ijodida xalqning iqtisodiy-madaniy hayotiga xizmat qiluvchi ilm-fanni, texnikani kuyladi. Shu nuqtayi nazardan, uning "**Tarixi chopxona**", "**Madaniyat haqida masnaviy**", "**Turkiston xalqig'a xitob**", "**Gazit xususida**", "**Tabrik Namangondin**", "**Tarixi manzumayi vagon**", "**Qalam**" kabi she'rlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Sho'ir ushbu she'rlarida ilg'or fan-texnika, madaniyatning otashin kuychisi sifatida maydonga chiqdi,

mamlakatni, xalqni asriy qoloqlikka sudrov-chi jaholatparastlikni, mutaassiblikni, shu bilan birga, mustamlaka qonun-qoidalarini keskin fosh etdi.

Ibrat xalqning madaniy va ma'naviy hayotida gazetaning katta ahamiyatga ega ekanligini yaxshi tushundi, mazkur mavzuga bag'ishlangan "Gazetdur jahon ahlig'a bir lison" deb boshlanuvchi, "Tabrik Naman-gondin", "Ibratdin manzuma" kabi turkum she'rlar bitdi. Shoir mazkur she'rlarida gazeta o'qimaganlarni uxlaganlar yoki o'lganlar bilan barobar hisoblaydi, shu bilan birga, gazetani jahon xalqlari uchun "bir lison" deydi:

*Gazetdur jahon ahlig'a bir lison,*

*Muayyan erur anda yaxshi va yomon.*

*Gazet ko'rмаган, бекабар халqlar,*

*Misli о'lgандур ва ўо ухлагон.*

*Dedi bir kishi: "Bid'at gazet!"*

*Dedim: "Qayda qoldi eski zamон?"*

Is'hoqxon Ibrat o'zi yashab turgan ijtimoiy hayotda yuz berayotgan eng dolzarb, muhim masalalarni ko'tarib chiqdi, ularga o'zining munosabatini bildirdi. Dunyoning, ijtimoiy voqeа-hodisalarning va texnikaning rivojlanish manbai sifatida dunyoviy ilm-fan, zamonaviy o'quv yurtlari ekanligini yaxshi tushundi. U o'z xalqining baxtli-saodatli, farovon hayotga, Vatanining yuksak taraqqiyotga erishishini chin qalbdan orzu qildi. Ibrat ma'rifatparvarligining yuksak optimizm bilan sug'orilganligi shundaki, u o'z xalqining, Vatanining porloq istiqboliga zo'r ishonch ko'zi bilan qaradi.

Is'hoqxon Ibrat atoqli ma'rifatparvar, mutafakkir shoир sifatida ustozи, shoир Zokirjon Furqat an'analarini o'ziga xos darajada davom ettirdi, butun ongli faoliyatini, hayotini ilm-fanga, maorifga, madaniyatga xalqini oshno qilish yo'liga bag'ishladi. Is'hoqxon Ibrat bir fardida katta ishonch bilan ta'kidlagan edi:

*Shoirning qadri hayotida bilinmas xalqg'a,  
Ba'd favti vasf etib, she'riga qo'ygaylar  
baho.*

**Xotira va xulosa.** Shu o'rinda o'zim bilan bog'liq kechgan bir voqeani aytib o'tishni muvofiq ko'rdim. 1960-yillar boshida To'raqo'rg'onda, Xo'jaqishloqda Is'hoqxon Ibrat hayoti va faoliyati bo'yicha ilmiy ishim uchun ma'lumot to'plab yurgan vaqtimda saksonlarga oshib qolgan Mulla Iskandar domla Abduvahob o'g'li bilan bir necha marta suhbatlashgan edim. Shunday suhbatlarning bida Iskandar domla shoirning qamoqqa olinishi arafasidagi ruhiy ahvoli haqida kuyunib gapirib bergen edi.: "Minglab o'zbek ziyolilarining yostig'ini quritgan sho'ro qatag'onining eng dahshatli yili — 1937-yilning ilk bahor kezlari edi. "Xalq dushmani", "millatchi" deb ko'plar qamoqqa olingan, gazeta va jurnallarda Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon, Elbek, Botu va boshqa

yozuvchilarni “millatchi”, “aksilinqilobchi” sifatida qoralovchi maqolalar ketma-ket chiqib turgan, to‘ram ham “taq” etsa, eshikka qarab o‘tirgan vaqlar. Xuddi shu kunlari meni uylariga chaqirib qoldilar. Qiyofalari ancha tashvishli. (*Ochig‘ini aytsam, Mulla Iskandar domla 60-yillarda shu gaplarni hech hayiq-may aytganlarida o‘zim ham qo‘rqib ketgan edim, chunki sho‘ro mafkurasi hamma masalada ustuvor edi-da. — U.D.*)

— Keling, Mulla Iskandar.

Salom-alik va bir piyola choydan keyin meni mashhur kutubxonalariga olib kirdilar.

— Qarang, shuncha kitob. Bularning qanchasi 1920-yillarda nest-nobud bo‘ldi. Mana endi yana notinchlik. Bu kitoblardan qanchasi kecha kuni qamalgan, qanchasi “xalq dushmani”, “aksilinqilobchi” deb qoralanayotgan yozuvchilar va shoirlarning asarlari. Bularni qanday qilib yo‘q qilish mumkin. Axir, bular xalqning beba ho mulki-ku! — to‘ramning

ovozlari ancha siniqqan edi. — Mana, men har ehtimolga qarshi oltmishta yaqin nozikroq kitoblarni ajratib qo‘ydim, bularni mehmonxonaning orqasiga — qo‘shtasinch orasiga nobud bo‘lmaydigan qilib terib, devorni yana suvab, oqlab qo‘yamiz, mulla Iskandar.

Men to‘ram bergen bu kitoblarni ko‘zdan kechira boshladim:

— To‘ram, mana bu kitoblar Ismoilbek G‘aspralining “Xo‘jayi sibyon”, Munavarqorining “Adibi avval”, Behbudiyning “Kitobat ul-atfol”, Avloniyning “Birinchi muallim” alifbolari. Axir, ular vafot etib ketganlariga bir necha yillar bo‘ldi, qolaversa, bu kitoblar yosh bolalar uchun yozilgan alifbolar, siyosatga hech bir aloqasi yo‘q-ku!

— Azizim mulla Iskandar, bolshaviklarning maqsadi ularni faqat jisman yo‘q qilish emas, balki ularni hatto farzandlarimiz xotirasidan ham sidirib tashlashdir. Mabodo, G‘asprali,

Saidrasul domla, Behbudiy, Munavvarqorilar shu kunlarga yetib kelganlarida bormi, bolshaviklar, birinchi navbatda, ularni otar edilar!

Men to'ram aytganlaridek ishni bajardim. Bu voqeadan bir-bir yarim oy o'tgach, 75 yoshni qoralagan to'ramni va kutubxonadagi hamma kitoblarni, hatto qo'lyozmalargacha bir mashinaga ortib olib ketishdi. Darhaqiqat, to'ram avliyo odam edilar.

Mana, o'sha voqeaga ham 30 yil bo'ldi. Men ham 80 yoshga to'ldim, bu sirni o'zim bilan u dunyoga olib ketsam, bu noyob kitoblar yo'q bo'lib ketadi, Xudoning qahriga uchrayman, bolalarim. Pirim mendan norozi bo'ladilar. Siz Rotibxon, o'g'lim Ulug'bek, Sizlar bilan birga o'sha xazinani ochamiz, Allohgaga ming qatla shukrkim, mening ham to'ram oldida yuzim yorug' bo'ladi".

Biz uch kishi "Gulbog'"ga yo'l oldik. Afsuski, "Gulbog'"dan faqat nomi qolgan. Bir

vaqtlar To‘raqo‘rg‘on aholisining sayr qiladi-gan, hordiq chiqaradigan oromgohi bo‘lganiga ishonmaydi, kishi. Men Rotibxon aka bilan Iskandar domla ko‘rsatgan joyni ehtiyyotkorlik bilan ochdik, kitoblarni asta ola boshladik. Bizga taskin beradigan joyi shundaki, qariyb o‘ttiz yil o‘tgan bo‘lsa ham birorta kitob oz bo‘lsa-da, shikastlanmagan, ammo varaqlari sarg‘ayib ketgan, muqovalari birmuncha urin-gan edi. Yuqorida tilga olingan kitoblardan tashqari, yana bir qancha jadid mutafakkirla-rining asarlari chiqdi”.

1937-yilning mart oyida dahshatli qatag‘on mashinasi Vatanimizning fozil kishilar qatorida Is’hoqxon Ibratni ham ajdahoday o‘z domiga tortdi. 75 yoshni qoralagan nuroniyl mutafakkir shoir, yirik olim, pedagog va bir qora mashina to‘la kitob Andijon zindoniga olib ketildi, endi besh yoshga to‘lgan Rotibxon otasi orqasidan qaqshab yig‘lab qoldi. Ulug‘ mutafakkir Is’hoqxon Ibrat sho‘rolar zindonida besh-olti

oy yotib, hayot bilan vidolashdi: ham ruhiy, ham jismoniy azoblarga, tahqirlarga bardosh bera olmadi. Nazarimda, uning bunday ruhiy ahvoli jabrdiydaning Andijon zindonida olin-gan so'nggi suratida yaqqol ko'zga tashlanadi.

“Suv balosi-yu o‘t balosidan O‘zing as-ragin” deb, Allohgaga iltijo qiladi xalqimiz. “Bosmachilik harakati” (aslida “Istiqlolchilik harakati”)ni yo‘q qilish shiori ostida olib borilgan qirg‘inbarotlar, 30-yillar, 50-yillar qatag‘onlari va yaqin 80-yillarda “O‘zbek ishi”, “Paxta ishi” mash’um voqealari har qanday “o‘t balosi-yu suv balosi”dan yuz chandon fo-jialiroq edi. Bu qirg‘inbarotlar necha million-lab o‘zbekning yostig‘ini quritdi. 70 yil ichida shuncha qirg‘in... Hech bir siyosiy tuzum, hukumat sho‘ro hukumatchalik o‘z xalqiga nisbatan bunday uzlucksiz, tizimli qatag‘onlar uyushtirgan emas. Men qalbimdagi dardli, iztirobli fikrlarni qog‘ozga tushiryapman-u,

rahmatli do'stim Rauf Parfining kishi qalbini  
larzaga soluvchi ushbu misralari boshim uzra  
charx uradi:

*Parchin-parchin bo'ldi yodim simlari,  
Simlar — ko'zlarimga mil tortgan chizgu.*

*O'tgan ulug'larni eslayman barin,*

*Xotirot mozori — Turkiston mangu.*

*Kecha sodiq o'g'ling o'tdi dunyodan,*

*Saxiy inson edi, shoir edi u.*

*Sanchilib yashaydi bir umr yodda,*

*Ketayotib men yig'lab bo'ldim, dedi.*

*Yig'la endi, ko'zim, sen-da yig'lab ol,*

*To'ysin ko'z yoshingga bu turkiy sitam.*

*To'ysin, Vatan yodi chidar bemalol,*

*O, sabr daraxti, qutlug' Turkiston.*

*Naqadar uzundir, og'irdir bu yo'l.*

Istiqlol tufayligina Is'hoqxon Ibrat haqidada bor haqiqatni aytish, uning asarlarini

oy yotib, hayot bilan vidolashdi: ham ruhiy, ham jismoniy azoblarga, tahqirlarga bardosh bera olmadi. Nazarimda, uning bunday ruhiy ahvoli jabrdiydaning Andijon zindonida olin-gan so'nggi suratida yaqqol ko'zga tashlanadi.

“Suv balosi-yu o‘t balosidan O‘zing as-ragin” deb, Allohga iltijo qiladi xalqimiz. “Bosmachilik harakati” (aslida “Istiqlolchilik harakati”)ni yo‘q qilish shiori ostida olib borilgan qirg‘inbarotlar, 30-yillar, 50-yillar qatag‘onlari va yaqin 80-yillarda “O‘zbek ishi”, “Paxta ishi” mash’um voqealari har qanday “o‘t balosi-yu suv balosi”dan yuz chandon fo-jialiroq edi. Bu qirg‘inbarotlar necha million-lab o‘zbekning yostig‘ini quritdi. 70 yil ichida shuncha qirg‘in... Hech bir siyosiy tuzum, hukumat sho‘ro hukumatchalik o‘z xalqiga nisbatan bunday uzlucksiz, tizimli qatag‘onlar uyushtirgan emas. Men qalbimdagi dardli, iztirobli fikrlarni qog‘ozga tushiryapman-u,

rahmatli do'stim Rauf Parfining kishi qalbini  
larzaga soluvchi ushbu misralari boshim uzra  
charx uradi:

*Parchin-parchin bo'ldi yodim simlari,  
Simlar — ko'zlarimga mil tortgan chizgu.  
O'tgan ulug'larni eslayman barin,  
Xotirot mozori — Turkiston mangu.  
Kecha sodiq o'g'ling o'tdi dunyodan,  
Saxiy inson edi, shoir edi u.  
Sanchilib yashaydi bir umr yodda,  
Ketayotib men yig'lab bo'ldim, dedi.  
Yig'la endi, ko'zim, sen-da yig'lab ol,  
To'ysin ko'z yoshingga bu turkiy sitam.  
To'ysin, Vatan yodi chidar bemalol,  
O, sabr daraxti, qutlug' Turkiston.  
Naqadar uzundir, og'irdir bu yo'l.  
Istiqlol tufayligina Is'hoqxon Ibrat haqi-  
da bor haqiqatni aytish, uning asarlarini*

to'laligicha xalqning ma'naviy mulkiga aylan-tirish zamonlari keldi. Shu o'rinda ta'kid-lash joizki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 2-noyabr kuni Namangan viloya-ti saylovchilari bilan saylovoldi uchrashuvida namanganlik mashhur tarixiy shaxslar qatori-da Is'hoqxon Ibrat hayoti va faoliyati, uning ma'naviy-ma'rifiy hayotimizda tutgan o'rniga alohida to'xtalib: "To'raqo'rg'onda Ibrat dom-la hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan muzey borligi yaxshi, albatta. Lekin savol tug'iladi: shunday ulug' zotning xalqimiz uchun qilgan buyuk xizmatlarini butun mamlakat miqyosida o'qib-o'rganish, merosini targ'ib qilish, avlod-larga yetkazish uchun shuning o'zi yetarlimi? Menimcha, To'raqo'rg'onda u kishiga atab zamonaviy bog' yaratib, yodgorlik majmuasini tashkil qilsak, buyuk bobomiz oldidagi qar-zimizni uzgan bo'lamiz!" — degan edi. Shun-dan so'ng 2017-yil 13-aprelda Vazirlar Mah-

kamasining “Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida atoqli ma’rifatparvar Is’hoqxon Ibrat nomida yodgorlik majmuasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

2018-yilning 3-may kuni davlatimiz rahbari majmuada amalga oshirilgan ishlar bilan borib tanishdi. O’tgan vaqt mobaynida ikki gektar yerdan ziyod maydonni egallagan yodgorlik majmuasida keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Loyiha qiymati 13 milliard so‘mdan ziyod majmua: bog‘-xiyobon, uning o‘rtasida Is’hoqxon to‘ra Ibratning ulug‘vor haykali, milliy uslubdagi ayvon, bosmaxona, musiqali favvora, chet tillarni o‘qitishga ixtisoslashtirilgan 400 o‘rinli maktab-internat va tarixiy-me’moriy muzeydan iborat barpo etilgan obidalarni o‘z ichiga olgan.

Xorijiy tillar bo'yicha ilmiy ishlar olib borish, til o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish, maktab-internatda mashg'ulotlarni shu asosda olib borish kerakligi ta'kidlandi. Yurtboshimiz Ibrat mifiktabini a'lo baholarga bitirgan o'g'il-qizlarni oliv o'quv yurtlariga imtihonsiz qabul qilish va grant asosida o'qitish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Millat hech qachon o'zining buyuk rahnamolarini unutmaydi.



# HIKMATLI SO‘ZLARI



Ziyo bilan yuraman desang dunyoda,  
Ilm ol, hunar o'rgan, qolma piyoda.

\* \* \*

“Shoirning qadri hayotida bilinmas xalqqa,  
Ba'd favti vasf etib, she'riga qo'ygaylar  
bahо”.

\* \* \*

“Madaniyatni topadurgan va yurgizadurgan  
asbobi ilmdir”.

\* \* \*

“Shaharning ehtiyojini qishloq ado qilur,  
qishloqning ehtiyojini shahar bitirur”.

\* \* \*

Tarixlar g'amni toza qilur, va lekin mundin  
ahli andisha kishilar ibrat olur.

\* \* \*



Bizning xalqning ixlosi libosga, odamga emas.

\* \* \*

Agar ustiga atlas yopilgan bo'lsa,  
Eshakka ham hamma salom beradi.

\* \* \*

Qariyalar maqolida borki: "Yorti mullo din buzar" deganlari to'g'ridir.

\* \* \*

Vaqt, asr laylatulqadrdek o'tib ketar, ilmsiz, axloqsiz qolursiz, harakat darkor.

\* \* \*

Hayotni sizga boylab bergani yo'q.

\* \* \*

Mamot hozirdir, vaqif bo'ling, amal qiling, ish qiling, yo'l toping, ilm o'qing.

\* \* \*

Imom afandilar masjidda va'z aytsalar, xaloyiqning bilmaganini bildirsalar, albatta, izzat-u hurmatlari-da ziyoda bo'lur.

\*\*\*\*\*

Befikr bo'lsang, ey do'st, muhtoji non  
bo'lursan.

E'TIROF

Is'hoqxon to'ra ulumi diniya va fanniya va adabiyada ustoz komilligi bilan butun Farg'ona va boshqa jihatdan O'rta Osiyoda inkor qilib bo'lmas darajadagi bir mumtoz mavqeni tutadir... Mana, islom e'tiqodi, farang fikrli, ovrupo qiyofali mo'min inson. Rahmat anga!

**Ibrohim Davron,**  
*atoqli pedagog, publitsist.*

\* \* \*

“Namanganda yashab o'tgan Is'hoqxon to'ra Ibrat tomonidan “Jome' ul-xutut” yozuv tarixi va husnixat san'atiga oid kitob yaratilgan, 1330-hijriy (1912-milodiy) yili chop etilgan. Bu asar dunyoda eng mashhur bo'lgan 41 xil yozuv namunalarini namoyish qilgan”.

**Abduqodir Murodov,**  
*olim va xattot*

\* \* \*

Is'hoqxon Ibrat o'z xalqining ilmli, ma'rifatli bo'lishini chin qalbidan istadi va bu istagini amalga oshirishda bilimini, kuch-g'ayratini ayamadi.

**Ulug'bek Dolimov**

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Dolimov U. Is'hoqxon Ibrat. — Toshkent: Sharq, 1994.
2. Is'hoqxon Ibrat. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Ma'naviyat", 2005.
3. Is'hoqxon Ibrat. Jome' ul-xutut. — Namangan: Matbaayi Is'hoqiya, 1912
4. Is'hoqxon Ibrat. Tarixi Farg'onha. O'zR FA SHI Qo'lyozmalar fondi, inv. 11080.
5. Is'hoqxon Ibrat. Tarixi madaniyat. O'zR FA SHI Qo'lyozmalar fondi, inv. 11616.
6. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
7. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. — Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
8. Qosimov B., Dolimov U. Ma'rifat darg'alari. — Toshkent: O'qituvchi, 1990.

## M U N D A R I J A

Adib hayoti.....	4
Ijodi va faoliyati.....	19
Hikmatli so‘zlari.....	171
E’tirof.....	175
Foydalilanigan adabiyotlar.....	178

*Ilmiy-ommabop nashr*

# IS'HOQXON TO<sup>\*</sup>RA IBRAT

<i>Muharrir</i>	Saidmurod Xolbekov
<i>Badiiy muharrir</i>	Muhammadxon Yusupov
<i>Texnik muharrir</i>	Dilmurod Jalilov
<i>Sahifalovchi</i>	Axtam Ro'zimurotov
<i>Musahhih</i>	Nigora G'aniyeva

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.  
2022-yil 20-mayda bosishga ruxsat etildi.  
Bichimi 60x84 ¼. AcademyUz garniturasи.  
Offset bosma. 4,5 shartli bosma taboq. 5,25 nashr tabog'i.  
Adadi 23000 nusxa. 04-raqamli buyurtma.  
Bahosi shartnoma asosida

YOSHLAR NASHRIYOT UYI.  
Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 11-uy.

"HIOL NASHR" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Chilonzor tumani, So'galli Ota k., 5-uy.



O'QINGIZ ILM-U HIKMAT,  
SIZGA BU ISH KATTA IBRATDUR.  
AGAR ILM O'RGANURSIZ,  
BARCHA ISHDA SIZGA NUSRATDUR...

IS'HOQXON TO'RA  
*Ibrat*

ISBN: 978-9943-6682-3-3



9 789943 668232